



Tadjqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORUJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2024

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2024

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

IYUN
№65
XIVA



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
2-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЙ ИССЛЕДОВАНИИФ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC RESEARCH
PART-2**

ТОШКЕНТ-2024



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2024]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 65-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2024 йил. – Тошкент: «Tadqiqot», 2024. – 101 бет

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазибалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар -

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тугган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт -

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни -

Phd Воҳидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Таҳировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б. доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт -

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва хаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Рахимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Т.ф.д., доцент Мамадова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналлов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

JAMOAT BIRLASHMALARI TUSHUNCHASI VAULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Asatov Akbar Laziz o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti
Yurisprudensiya: biznes huquqi
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamoat birlashmalarining tushunchasi, ularning belgilari, tarkibiy elementlari hamda tasniflanishi haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari maqolada davlat va huquq rivojlanishining istiqbolli yo‘llarida ushbu institutlarining ahamiyati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ushbu tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi uchun hozirgi kunda amalga oshirilayotgan harakatlar hamda mamlakatimizning yaqin kelajakda bu institutlarni rivojlantirish uchun o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: partiya, demokratiya, institut, assotsiatsiya, syezd, konferensiya, ustav, nizom.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.[1]

Jamoat birlashmalari eng muhim demokratik institutlardan hisoblanib, ular fikrlar va g‘oyalar xilma-xilligini amalda ta’minlovchi muhim vositadir.[2]

1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunining 1-moddasida jamoat birlashmalariga quyidagicha ta’rif berilgan: “O‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma’rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e’tirof etiladi”.

Qonunning 6-moddasiga ko‘ra jamoat birlashmalari respublika (jumhuriyat) va mahalliy bo‘lishi mumkin. Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun jumhuriyat hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari jumhuriyat jamoat birlashmalariga kiradi. Bunda siyosiy partiyaning kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan kamida yigirma ming, kasaba uyushmasining esa, kamida uch ming a’zosi bo‘lishi kerak.

Viloyat, nohiya, shahar, posyolka va qishloq jamoat birlashmalari mahalliy jamoat birlashmalariga kiradi. Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun viloyat hududida, Toshkent shahrida esa butun shahar hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari viloyat, Toshkent shahar jamoat birlashmalariga kiradi. Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun nohiya (shahar) hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari nohiya (shahar) jamoat birlashmalariga kiradi.



Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati posyolka, qishloq hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari posyolka, qishloq jamoat birlashmalariga kiradi. Zarurat paydo bo'lgan hollarda viloyatlararo va nohiyalararo jamoat tashkilotlari tuzilishi mumkin.

Qonunga ko'ra jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamoat birlashmasi a'zolari (qatnashchilari) bo'ladilar. Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta'sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o'zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish; fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish; kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport ishlarini amalga oshirish; tabiatni, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek konstitutsion tuzumni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo'ravonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy, shuningdek irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonunchilik bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo'l qo'ymaydi.

Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek diniy xarakterga ega partiyalar, ularning filiallari va boshqa struktura bo'laklari tashkil etish taqiqlanadi.

Siyosiy partiyalardan tashqari jamoat birlashmalarining ustavida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning birlashmaga a'zo bo'lishlari ko'zda tutilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari jumhuriyat siyosiy partiyalarining a'zolari bo'lishlari mumkin. Bir siyosiy partiyaning a'zosi ayni vaqtda boshqa siyosiy partiyaning a'zosi bo'la olmaydi. Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalaridan tashqari jamoat birlashmalarining faoliyatida ularning ustavlarida ko'zda tutilgan hollarda jamoa a'zolari: korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mehnat jamoatlari, fuqarolarning birlashmalari ishtirok etishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi xalqaro jamoat tashkilotlarining, jumhuriyat, viloyatlararo birlashmalarining ustavlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida jamoat birlashmasining ustavini ro'yxatga olish tartibi Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilanadi.

Viloyat, nohiya, shahar, posyolka, qishloq hududida yoki ikki va undan ortiq nohiya, shahar, posyolka, qishloq hududida faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarining ustavlari viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklarining adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatga olinadi.

Jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olish uchun ustav qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddat ichida mazkur jamoat birlashmasi rahbar idorasi a'zolari tomonidan imzolangan va shu a'zolar har birining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, istiqomat joyi ko'rsatilgan ariza topshiriladi. Ustavni ro'yxatga olish haqidagi ariza u topshirilgan kundan boshlab bir oy muddatda ko'rib chiqiladi.

Jamoat birlashmalari ustavlariga kiritilgan o'zgarishlar, qo'shimchalar ham ustavlarni ro'yxatga olish tartibi va muddatlariga muvofiq ro'yxatga olinishi lozim.

Jamoat birlashmasi yoki uning tashkilotlari (idoralari) ularning ustavlari ro'yxatga olingan kundan boshlab ushbu Qonunda belgilab qo'yilgan tartibda o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar va fuqarolik qonunchiligiga muvofiq huquqiy shaxs deb tan olinishi mumkin.

Xalqaro jamoat birlashmalarining, ularning bo'linmalarining filiallari, shu jumladan ommaviy harakatlari va ularning tarmoq bo'linmalarining, shuningdek jumhuriyat va mahalliy jamoat birlashmalari (shu jumladan ommaviy harakatlarning) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida va uning joylaridagi idoralarida o'z ustavlarini ro'yxatdan o'tkazmagan bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmasi ustavini, unga kiritilgan keyingi o'zgartirishlar va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan



miqdorda davlat boji undiriladi.[3]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023.
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 165-b.
3. O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonun – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son.



QONUNIYLIKNI MUSTAHKAMLASH HAMDA HUQUQBUZARLIKLAR
SABABLARINI ANIQLASH, O‘RGANISH HAMDA BARTARAF ETISH CHORA-
TADBIRLARI

Turanov Diyorbek Abdullayevich
O‘zbekiston Milliy universiteti
Yurisprudensiya yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi va uning turlari shuningdek uni amalga oshirish doirasida kriminologik sabablar va ularni aniqlash, ularni bartaraf etish masalalari tadqiq etilgan. Bundan tashqari esa qonuniylikni mustahkamlashda huquqbuzarliklar profilaktikasining ahamiyati va uning huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi tomonidan amalga oshirishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiyaviy qoida, viktimologik profilaktika, hududiy profilaktika inspektorlari, davlat va nodavlat tuzilmalar, huquqiy targ‘ibot, ma‘naviy-axloqiy tarbiya.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida shunday deb belgilab qo‘yilgan: **“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi”**. Har bir davlatning ijtimoiy hayoti huquqiy asosda rivojlanadi. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi huquqiy davlatning asosiy prinsiplari qatoriga kiradi.

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquq va erkinliklari qadrlanmasa, qonunlar va milliy an‘analalar, urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar hurmat qilinmasa demokratik huquqiy davlatni tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois ushbu konstitutsiyaviy qoida O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining eng muhim prinsiplaridan biridir.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta‘minlanishidir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi quyidagilarni bildiradi:

birinchidan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunning qat‘iyan hukmronligi. Hech qanday shaxs, hech bir davlat organi yoki boshqa biror fuqaro qonunga bo‘ysunish majburiyatidan ozod etilishi mumkin emas;

ikkinchidan, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun huquqiy javobgarlikka tortilishi.

Buyuk mutafakkir falsafiy-huquqiy g‘oyalarni himoya qilgan faylasuf, Abu Nasr Forobiy (870—951) jahon ahamiyatiga molik davlatning xalifasi huzurida faoliyat ko‘rsatgan mashhur huquqshunos hisoblangan. Uning e‘tiroficha, qonunlarni hayotga joriy etish ularni kabul kilishdan ko‘ra murakkab jarayondir [1] deb ta‘kidlagan. Hozirgi kunga kelib qonunni qabul qilish bilan bir qatorda ularning mazmun mohiyatini xalqqa tushuntirish ham eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktikaning turlari berilgan bo‘lib ular quyidagilardan iborat. **Bular [2]:**

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi.

Qonun huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi yaxlit me‘yoriy-huquqiy bazani shakllantirish imkonini beradi. Jamiyatda huquq-tartibotni yanada mustahkamlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinadigan samarali profilaktika tizimini yaratdi.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi - huquqbuzarliklar profilaktikasiga, aholi o‘rtasidagi huquqiy targ‘ibotga, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish choralari ishlab chiqish hamda amalga oshirish tizimi nazarda tutilgan.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi - ayrim turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga ta‘sir ko‘rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish tushuniladi.

Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktika - choralari tushunchasi va mexanizmi aniq ochib berilgan, bu esa amaliyotda mazkur choralarning bir hilda va to‘g‘ri qo‘llanilishini ta‘minlaydi



hamda ular noto'g'ri talqin qilinishining oldini oladi.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi - bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxslarning huquqbuzarliklar jabrlanuvchisiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyati hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini turli yo'nalish va hududlar bo'yicha maxsus dasturlar orqali tashkil etishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda politsiya yoki ichki ishlar idoralarining ishtiroki minimal darajada bo'lib, amalga oshirilayotgan dasturlarning ijrosi asosan aholining ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatiga asoslanadi. Shuningdek, ushbu dasturlar profilaktikaning klassik usullari — politsiya patruli, targ'ibot va tushuntirish ishlariga nisbatan ancha samarali ekanini ma'lum bo'lmoqda. Bu borada AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, huquqbuzarliklar profilaktikasi faqat keng qamrovda tashkil etilgandagina samara berishi mumkin. Bu esa mazkur jarayonda barcha darajadagi davlat va nodavlat tuzilmalar hamda fuqarolarning keng ko'lamdagi ishtirokini talab etadi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish uchun turli idoralar va tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirilganda samaraliroq bo'ladi.

Professor I. Ismailov hamkorlikning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tgan. Bular [3]:

- ichki idoraviy hamkorlik;
- idoralararo hamkorlik;
- jamoatchilik bilan hamkorlik;
- xalqaro hamkorlik

“Prokuratura to'g'risida”gi Qonunning 2-moddasida O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qatorida huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish mustahkamlangan. Ichki ishlar vazirligining ham asosiy vazifalaridan biri huquqbuzarlikning oldini olishdir. Ayniqsa joylardagi militsiya tayanch punktlaridagi ichki ishlar organlarining hududiy profilaktika inspektorlari va fuqarolar yig'inlarining yarashtirish komissiyalari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilarining hamkorlikdagi faoliyati huquqbuzarliklar oldini olishda samarali mexanizm vazifasini bajarilmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, **Birinchi**dan, huquqbuzarliklar profilaktikasi deganda huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi tushuniladi.

Ikkinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasi jamiyatda huquq-tartibotni yanada mustahkamlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilindigan samarali profilaktika tizimini yaratadi. Shuningdek, qonun huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi umumiy kurashish imkoniyatini kuchaytiradi, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligiga, fuqarolarda qonunga hurmat hamda itoatgo'ylik ko'nikmasini mustahkamlashga yordam beradi.

Uchinchidan, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, har bir shaxsning Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlangan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.— Toshkent, “O'zbekiston”1991. b-201.
2. O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 32-son, 425-modda) 2014-y, 6-modda.
3. Ismailov I. Terrorizmga qarshi kurash // Qonun himoyasida. – 2004. –№7. B.30–31.



ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯВИЙ НАЗОРАТ
ҚЎМИТАСИ АЪЗОЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИ

Айтгул Курбанбаева

Қорақалпоқ давлат университети
таянч докторанти.

Аннотация: Мақолада Қорақалпоғистон Республикаси Конституциявий назорат қўмитаси аъзоларининг ҳуқуқий мақоми, аъзолигига қўйиладиган талаблар, уларнинг дахлсизлик ҳуқуқи, Конституциявий назорат қўмитаси аъзосининг ваколатларини тўхтатиб туриш, муддатидан илгари тугатиш кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Конституциявий назорат қўмитаси аъзоси, дахлсизлик ҳуқуқи, ваколат, муддатидан илгари тугатиш, сессия, суд тартибида.

Аннотация: В статье рассмотрены правовой статус членов Комитета конституционного контроля Республики Каракалпакстан, требования к их членству, их правона неприкосновенность, приостановление полномочий члена Комитета конституционного контроля, досрочное прекращение их полномочий.

Ключевые слова: Член Комитета конституционного контроля, неприкосновенность, полномочия, досрочное прекращение, сессия, судебная процедура.

Annotation: The article examines the legal status of members of the Constitutional Control Committee of the Republic of Karakalpakstan, requirements for their membership, their right to immunity, suspension of powers of a member of the Constitutional Control Committee, early termination of their powers.

Keywords: Constitutional Supervision Committee, constitutional laws, by-laws, compliance with laws, government regulations, regulatory documents.

Қорақалпоғистон Республикасида Конституциявий назоратни Конституциявий назорат қўмитаси амалга оширади.

Қорақалпоғистон Республикасининг “Қорақалпоғистон Республикаси Конституциявий назорат қўмитаси тўғрисида”ги (янги таҳрирдаги) Қонуннинг 2-моддасига мувофиқ: “Қорақалпоғистон Республикаси Конституциявий назорат қўмитаси Қорақалпоғистон Республикаси қонун чиқарувчи ва ижро ҳокимияти органларининг қонунчилик ҳужжатларининг Қорақалпоғистон Республикаси Конституциясига мувофиқлигини назорат қилувчи давлат органи” [1] - деб белгиланган.

Конституциявий назорат – демократик давлатчиликнинг муҳим сифат белгиси сифатида, замонавий демократик давлатнинг алоҳида талаби, зарурий институти бўлиб, Конституциянинг устунлигини таъминлаш ҳамда мамлакатда қонунийлик муҳитини, инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари кафолатларини яратишнинг ишончли гаровидир.

Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Аслида эса, аввало, инсон, унинг ҳақ-ҳуқуқлари ва бахт-саодати давлат сиёсати, барча давлат органлари фаолиятининг энг устувор мақсади бўлиши лозим. Жамият қурилиши ва давлат сиёсати ана шу ғояга таяниши ҳамда “Давлат-инсон учун”, “инсон-жамият-давлат” тамойиллари асосида ташкил этилиши даркор” [2].

Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси томонидан қўмита раиси, унинг ўринбосари ва унга аъзолари таркибида сиёсат ва ҳуқуқ соҳасидаги мутахассиси бўлган, юксак маънавий фазилатларга эга бўлган Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудида доимий яшайдиган Ўзбекистон Республикаси фуқароси сайланади. Конституциявий назорат қўмитасига сайланган аъзоларининг ваколат муддати 5 йилдир.

Айни бир шахс икки мартадан ортиқ Конституциявий назорат қўмитасининг аъзоси бўлиб сайланиши мумкин эмас.

Конституциявий назорат қўмитаси раиси ва унинг ўринбосари доимий асосда ишлайдиган Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси депутатларига тенглаштирилган Конституциявий назорат қўмитасининг аъзолари ҳисобланади.

Шунингдек, Қорақалпоғистон Республикаси Конституциявий назорат қўмитаси раиси,



ўнинг ўринбосари ва аъзолари Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси сессияларида иштирок этиш ва сўзга чиқиш ҳуқуқига эга.

Қорақалпоғистон Республикаси Конституциявий назорат кўмитаси раиси Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг мажлисларида ҳам иштирок этиш ва уларда сўзга чиқиш ҳуқуқига эга ҳисобланади.

Конституциявий назорат кўмитасининг аъзоси ўз ваколатлари давомида дахлсизлик ҳуқуқига эга.

Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгесининг розилигисиз Конституциявий назорат кўмитаси аъзоси жиноий жавобгарликка тортилиши, ушлаб туриш, қамоққа олиниши ёки суд тартибда бериладиган маъмурий жазога тортилиши мумкин эмас.

Конституциявий назорат кўмитаси аъзосини мажбурий келтириш, шунингдек унинг шахсий уй-жойини, хизмат хонасини, бағажини, шахсий ва хизмат автотранспорт воситаларини, ёзишмаларин, у фойдаланаётган алоқа воситаларин, шунингдек унга тегишли ҳужжатларни кўздан кечиришга йўл қўйилмайди.

Конституциявий назорат кўмитаси раисининг, раис ўринбосарининг ва аъзоларининг ўз вазифаларини депутатлик мандати билан бирга қўшиб олиб боришларига йўл қўйилмаслиги ҳамда бир вақтнинг ўзида ҳужжатлари кўмита назоратида бўлган органлар таркибига кира олмаслиги Конституцияон норма сифатида белгиланган [3].

Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси сессиясида, Жўқорғи Кенгесининг сессиялари оралиғидаги даврда эса, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси Президиумининг қарори билан Конституциявий назорат кўмитаси аъзосининг ваколатлари қуйидаги ҳолларда Конституциявий суднинг қарори билан тўхтатиб турилиши мумкин:

- у жиноий жавобгарликка тортилган бўлса;
- у кўмита аъзоси вазифаси билан бир вақтда шуғулланиб бўлмайдиган фаолият билан шуғулланганида;
- у суднинг қарори билан бедарак йўқолган деб топилганида.

Конституциявий назорат кўмитаси аъзоси ваколатларининг тўхтатиб турилиши унга иш ҳақи тўлашнинг тўхтатиб турилишига олиб келмайди ва кўмита аъзосининг ушбу Қонунда белгиланган дахлсизлик қафолатларидан маҳрум этмайди, бундан эҳтиёт чораси сифатида кўмита аъзосига нисбатан қамоққа олиш танланган ҳоллар мустасно.

Конституциявий назорат кўмитаси аъзосининг ваколатлари уларни тўхтатиб туриш асослари бекор бўлгунига қадар тўхтатиб турилади.

Конституциявий назорат кўмитасининг аъзолиги ваколатини тиклаш масаласи Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси томонидан, Жўқорғи Кенгес сессиялари оралиғидаги даврда унинг Президиуми томонидан, Президиумнинг ушбу масалага доир қарори кейинчалик Жўқорғи Кенгес сессиясида тасдиқланади.

Конституциявий назорат кўмитаси аъзосининг ваколатлари Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси Раисининг Жўқорғи Кенгес Президиуми билан келишилган тақдимномасига биноан Жўқорғи Кенгеси сессиясида, сессиялари оралиғидаги даврда эса, Жўқорғи Кенгес Президиумининг қарори билан қуйидаги ҳолларда муддатидан илгари тугатилади:

- у кўмита аъзосининг қасамёдини бузганида;
- у ёзма ариза берганида;
- унга нисбатан суднинг айблов ҳукми қонуний кучга кирганида;
- кўмита аъзоси огоҳлантирилганидан ёки унинг ваколатлари тўхтатилганидан кейин ҳам кўмита аъзосивазифаси билан бир вақтда шуғулланиб бўлмайдиган фаолиятни давом эттирганида;
- соғлиғининг ҳолатига ёки бошқа узрли сабабларга кўра у узоқ вақт мобайнида кўмита аъзоси вазифаларини бажаришга қобилиятсиз бўлганида;
- у Ўзбекистон Республикаси фуқаролигини йўқотганида;
- у белгиланган тартибда муомалага лаёқатсиз ёки муомала лаёқати чекланган деб топилганида;
- у вафот этганида ёки суднинг қарори билан вафот этган деб эълон қилинганда.

Шунингдек, Конституциявий назорат кўмитаси аъзоси деган юксак номга доғ туширувчи хулқ-атвор бундай масалани кўриб чиқиш учун асос бўлиши мумкин.

Агарда Конституциявий назорат кўмитаси раиси ва унинг ўринбосори ваколатлари



тугаганидан кейин уларга Конституциявий назорат қўмитасига сайланишига қадар эгаллаб турган аввалги иши (лавозими) берилади, бундай иш (лавозим) мавжуд бўлмаганда эса, аввалгисига тенг бошқа иш (лавозим) берилади.

Хулоса ўрнида шунни айтиш мумкинки, Қорақалпоғистон Республикаси Конституциявий назорат қўмитасининг аъзолари қонун билан юклатилган вазифаларни ҳалол ва виждонан бажарадиган, сиёсат ва ҳуқуқ соҳасидаги мутахассиси бўлган, ўз фаолиятини бажаришда фақат Қорақалпоғистон Республикаси Конституциясига бўйсинадиган, юксак маънавий фазилатларга эга бўлган шахсина қўмита аъзолигига сайланиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қорақалпоғистон Республикасининг «Қорақалпоғистон Республикаси Конституциявий назорат қўмитаси тўғрисида»ги Қонуни 2021 йил 12 июнь, 130/XVIII-сон
2. Шавкат Мирзиёев Миромонович. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент. “O’zbekiston» нашриёти, 2023. – Б.59.
3. Қорақалпоғистон Республикасининг Конституцияси. Нукус. «QARAQALPAQSTAN», 2021.



XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB QUVVATLASH, ULARNING JAMIYATAGI FAOL ISHTIROKINI TA'MINLASH SIYOSATI

Shokirova Lola Otabek qizi

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti,

Xalqaro Huquq fakulteti magistranti

Telefon: +998978057377

E-mail: lolashokirova1@gmail.com

ANNOTATSIYA.

Har qaysi jamiyat va davlatning ma'naviy darajasi, ma'naviy barkamol va yetukligi uning ayollarga ko'rsatayotgan hurmat va e'tiborida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda bizning xalqimiz ayollarga nisbatan hurmat, ularni e'zozlash borasida o'ziga xos alohida o'rin egallaydi. Ushbu maqolda aynan mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash, ularning jamiyatdagi rolini oshirish masalalarini davlat siyosati darajasida bajarish borasidagi islohatlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, gender tenglik siyosati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar, gender tenglik, faoliyat, jamiyat, ayollarga e'tibor, ayollarni e'zozlash.

ABSTRACT: The spiritual level, spiritual perfection and maturity of any society and state is reflected in the respect and attention it shows to women. At this point, our nation occupies a special place in terms of respect for women and honoring them. In this article, the reforms and their results are analyzed at the level of state policy to support women in our country and increase their role in society. It also discusses gender equality policies.

KEY WORDS: Women and girls, gender equality, activity, society, attention to women, respect for women.

KIRISH. Azal-azaldan xotin-qizlarimizga ertangi kun davomchilari bo'lmish kelajak avlodlar ham jisman, ham ma'nan kamolga yetkazuvchi ulug' zot sifatida e'zozlanib kelingan. Shu bois ularga qancha ehtirom ko'rsatsak, shuncha oz. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonning yangicha tamoyillari asosida xotin-qizlar masalalariga yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Ularning o'qishi, ishlashi, salomatligini asrash, huquq va erkinliklari hamda oilasi uchun sharoitlar yaxshilanmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida inson qadri va manfaatlarini himoya qilish, har qanday holatda ham uning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi yotibdi. Xususan, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'z imkoniyatlari hamda qobiliyatlarini erkin namoyon qilishlari uchun sharoit yaratish, xotin-qizlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida gender tengligiga erishish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ayollar mas'uliyati, faolligi tarixiy davrlarda turli dinamikada rivojlangan. Aristotel, I. Kant, F. Gegel, R. Dekart, Platon, E. Fromm kabi mutafakkirlar o'zlarining ilmiy asarlarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda ayollarning jamiyat hayotida tutgan o'rni xususida siyosiy-falsafiy g'oyalarni ilgari surilgan. Xorijiy davlat tadqiqotchilari tomonidan ayollar faolligi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni xususida qator monografik tadqiqotlar e'lon qilingan. Jumladan, K. Borman, P. Barroy, M. Vales, E. Cox, S. Haggard. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida bu borada N. Ivanova¹, S. Prigojina², L. Popova³ kabi faylasuflarning ilmiy izlanishlarini namuna qilish mumkin. Ayollar ijtimoiy-siyosiy faolligi masalalari hamda ayol huquqlari va ijtimoiy mavqei masalalarini M. Xolmatova, S. Safayeva⁴, A. Xuseynova⁵, R. Ubaydullayeva shuningdek, maxsus dissertatsiya va fundamental izlanishlarda S.A. Axrorov (O'zbekistonda ayollar ijtimoiy

1 Иванова Н. Что раздражает мужчин в женщинах: секреты семейного счастья. – Ростов на Дону, Феникс, 2007. С.211.

2 Пригожина С.В. Женский портрет на фоне Востока и Запада. – М.: Вост. лит-ра, 2006. С.478.

3 Попова Л.В. Проблема самореализации одаренных женщин // Вопросы психологии. – 1996. – № 2. С. 31–41;

4 Холматова М., Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. Б.162.

5 Хусейнова А.А. Фуқаролик жамияти ва аёллар. – Бухоро, 2009. Б.88



faolligini oshirish), N.D.Jo'rayeva (O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni), N.M.Muravyova (Ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari), K.U. Najmiddinova, F.A.Primova (Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni), X.Nasrullayeva (O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayoni), M.A.Karimova (O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy muhofazalashda islomiy qadriyatlarining o'rni), G.B.O'razaliyeva (Gender munosabatlarining ayollar huquqiy madaniyatini takomillashtirish), N.R.Annayeva (Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti) kabi olimlar ilmiy-metodologik jihatdan tadqiq etishgan.[1]

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan barcha tadbirlar bugun ayollarimizning ishtirokisiz o'tmaydi. Ayniqsa, fan, ta'lim, madaniyat sohasida minglab olim-yu, fozila ayollar mehnat qilmoqdaki, ular jamiyat taraqqiyotida o'z mavqeyi va munosib ish o'rinlariga egadirlar. Shu jihatdan olganda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz I. A Karimov xotin – qizlar masalasiga alohida to'xtalib “Bugun ma'rifiy dunyoda xotin – qizlar manfaati degan alohida masala bor va uni o'rganish, yechimini topishga juda katta ahamiyat berilishi bejiz emas. Agar ayollarga yetarli e'tibor berilmasa, bunday jamiyatning kelajagi bo'lmaydi” deb ta'kidlagan [2]. Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj xotin – qizlarimizni bugun faol qilib, qiyin vaziyatida ularni o'qitib, kasb – hunarli qilib, muammolarini o'zlari yengishga asosiy e'tibor qaratilmoqda, va ijtimoiy xodim sifatida bu bizning ustuvor maqsadimiz. Zamonamizni o'tmish tarix bilan taqqoslasak, xotin – qizlarimizning bugungidek erkinligi, huquq va imkoniyat jihatidan tengligi taqsiqga sazovordir. Bugun xotin –qizlarimiz uchun mavjud imtiyozlarni ko'rib chiqamiz. Xotin- qizlar o'qishga kirishida qo'shimcha davlat granti va imtiyozli kreditlar.

Kam ta'minlangan oilalardagi xotin qizlar;

To'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan yoxud ota – onasining ikkisi hamvafot etgan ijtimoiy himoya muhtoj qizlar;

Turmush o'rtog'i vafot etgan. Voyaga yetmagan farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar;

Nogironligi bo'lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin – qizlar.

Yuqoridagi ehtiyojmand toifalarga tavsianoma Mahalla va Nuroniylarni

qo'llab – quvvatlash vazirligi tomonidan beriladi hamda bu toifalar “Ayollar daftari”ga ham tegishlidir. “Ayollar dafari” ga 30 yoshdan oshgan xotin va qizlarimizni qamrab oladi. Qo'llab – quvvatlash asosan (moddiy tomonlama, natura shaklida, dori- darmon bilan ta'minlash, jarroxlilik amaliyoti uchun mablag'lar bilan qo'llab –quvvatlash) ni o'z ichiga oladi. OTM uchun 4 % kvotani olishi mumkin. Bundan tashqari 2020 – yil 18- fevraldagi PF–5938 “Jamiyatda ijtimoiyma'naviy muhitni sog'lomlashtirish mahalla institutini yanada qo'llab – quvvatlash hamda oila va xotin – qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora – tadbirlari to'g'risida” gi farmoni qabul qilindi[3]. Bunda yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin –qizlar, nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy –huquqiy, xotin – qizlarning bandligi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, qishloq joylarda xotin – qizlarning oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilikka jalb qilishga ham atroflicha to'xtab o'tilgan. Aytishimiz joizki, 2019– yil 2- sentabrda “Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va hamda imkoniyatlar kafolatlari” to'g'risidagi qonun mavjud bo'lib, 5-moddasida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, ya'ni har bir faoliyat turida ayollarimiz erkaklar kabi istgan kasbida ishlashi va o'z karyerasini tashkil qilishi mumkin. Hozirda yangilanayotgan bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamizning yangi tahririning 58- moddasida – xotin –qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin – qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi [4]. Xo'sh, aslida erkak va ayol rahbarlar muvaffaqiyatga erishishlarida ma'lum darajada tafovut mavjud.Taniqli daniyalik olim F. Denmark katta hajmdagi tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga keldiki, hususan insoniy munosabatlar, kongilchanlik, boshqaruvda demokratik tamoyillarga suyanish ayollarda ko'proq uchraydi. [5]

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda.Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli



ishlarni tashkil etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi. Jumladan:

birinchidan, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud emas, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlar bilan yakka tartibda ish olib borish amaliyoti yo'lga qo'yilmagan, xotin-qizlar o'rtasida bandlikka ko'maklashish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha faoliyat samarasiz tashkil etilgan;

ikkinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy negizlari va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmayapti, erta nikohlarning, oilalardagi nizoli holatlar va ajrashishlarning oldini olish bo'yicha choralarning samaradorligi past darajada qolmoqda;

uchinchidan, xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish borasidagi faoliyat yetarli darajada tashkil etilmagan, onalar kasalligi va perinatal kasalliklar profilaktikasi va ularning oldini olish bo'yicha samarali tizim, ayniqsa, chekka qishloq hududlarida mavjud emas;

to'rtinchidan, xotin-qizlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha samarali choralar ko'rilmayapti, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularga yuridik maslahatlar berish mexanizmi zamon talablariga javob bermaydi;

beshinchidan, xotin-qizlar qo'mitalarining keng ko'lamliligi zarur vakolatlarining yo'qligi va tashkiliy-shtat birliklarining yetishmasligi sharoitida xotin-qizlarning eng muhim muammolarini hal etish borasida ularning kuch va imkoniyatlarini to'liq safarbar etish imkonini bermayapti;

oltinchidan, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkiliy bo'ysunuvining noaniqligi va zarur moliyalashtirish manbalarining mavjud emasligi, oila muammolarini o'rganish hamda ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy, ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish bo'yicha unga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishiga to'sqinlik qilmoqda;

yettinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilani mustahkamlash, nizoli holatlar va ajrashishlarning oldini olish sohasida kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha ishlar tashkil etilmagan[6]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Yaqinda qabul qilingan Milliy dasturni 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilayotgan yangiliklar fikrimizning to'liq isbotidir. Xususan, 6 ta asosiy yo'nalish va 112 ta banddan iborat bo'lgan chora-tadbirlar rejasida xotin-qizlarni mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirishga qaratilgan, ilgari jahon mamlakatlari amaliyotida kuzatilmagan Yangi O'zbekistonning o'ziga xos tajribasiga asos bo'ladigan quyidagi yangiliklar belgilandi:

birinchi yo'nalish: xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonunchilikda "xotin-qizlarni ta'qib etish" tushunchasining huquqiy ta'rifini ishlab chiqish; o'quvchi-yoshlarga nisbatan jismoniy tazyiq o'tkazganlik, zo'ravonlik sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash; uzoq muddatga chet davlatlarga chiqib ketayotgan ota-onalar tomonidan farzandiga vasiy yoki homiy tayinlashning majburiy tartibini belgilash; "Bolalarga aliment undirish va oilani ta'minlashning boshqa shakllarining xalqaro tartibi to'g'risida"gi Gaaga Konvensiyasiga qo'shilish, xotin-qizlarning mehnat huquqlari ta'minlanganlik holatini o'rganish; xo'jalik hisobidagi korxonalar va tashkilotlarda rasmiy ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lash tizimini yaratish; jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etiladigan xotin-qizlarning oilalaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga ko'maklashish; "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi, "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyalar asosida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari ijrosini o'rganish va boshqa masalalar belgilangan;

ikkinchi yo'nalish: xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy vasiyosiy faolligini oshirish maqsadida: 2022-yilda 140 ming, 2023-yilda 150 ming nafar xotin-qizlarni ishga joylashtirish choralari ko'rish; 2022-yilda 66 ming, 2023-yilda 74 ming nafar xotin-qizlarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish orqali ularning bandligiga ko'maklashish; 2022-yilda 17 062 nafar, 2023-yilda 19 020 nafar xotin-qizga subsidiyalar ajratish; respublika va hududlarda "Yetakchi ayollar muloqoti" platformasini tashkil etish; Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining magistraturasiga nomzodlarni tavsiya etishda xotin-qizlarning sonini magistraturada o'qishga tavsiya etilgan nomzodlar umumiy sonining 30 foizigacha yetkazish; "Bir million dasturchi" loyihasida ishtirok etadigan xotin-qizlar sonini 30 foizga yetkazish kabi muhim masalalar o'z ifodasini topgan; **uchinchi yo'nalish:** ijtimoiy



himoyaga muhtoj xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida: 14 ming nafar xotin-qizlarga turarjoy ijara to'lovi bo'yicha kompensatsiyalar to'lash, 12 ming nafar xotin-qizlarni ijtimoiy ijara shartlari asosida ijtimoiy uyjoylarga joylashtirish; uy-joyga muhtoj noturarjoylarda yashaydigan "Ayollar daftari"ga kiritilgan 6 ming nafar xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatish; "Ayollar daftari"ga kiritilgan yolg'iz ehtiyojmand xotin-qizlarga kamida 100 ming nafar xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordam ko'rsatish; 30 ming nafar xotin-qizlarga ularning ta'mirtalab uy-joylarini ta'mirlash uchun qurilish materiallari olib berish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish; 84 333 nafar onaxonlarni bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish; 12 919 nafar onaxonlarni tashkilotlar va kasaba uyushmalari sanatoriylarida davolanishlarini tashkil etish; "Ayollar daftari" tizimi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz 300 ming nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

To'rtinchi yo'nalish: oila institutini mustahkamlash maqsadida har yili rejadadval asosida 1000 ta notinch va kam ta'minlangan oilalarni ichki turistik sayohatga imtiyozli yuborish; oilaviy ajralishlarning oldini olishda mediatorlik institutining rolini kuchaytirish; O'zbekistonning 2030-yilgacha mo'ljallangan demografik barqarorlik Konsepsiyasini ishlab chiqish;

"Demografiya" milliy portalini yaratish hamda mazkur sohada faoliyat yuritayotgan olimlarning yutuqlari va ishlanmalarini yoritib borish kabi dolzarb vazifalar nazarda tutildi.

Beshinchi yo'nalish: xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida: xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish borasida fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirish; voyaga yetmagan qizlar bilan ishlashda "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmi samaradorligini oshirish; profilaktik hisobda turgan xotin-qizlar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirish kabi xotin-qizlar bilan ishlash borasidagi amaldagi yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Oltinchi yo'nalishda esa chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilgan yuqoridagi ustuvor vazifalarni samarali amalga oshirish, ularning izchilligini ta'minlash va bu borada kuchli monitoring yuritishning tashkiliy mexanizmlari belgilandi. Mazkur holat xotin-qizlarning chinakamiga baxtli hayot kechirishlari, saodatli ayol sifatida oila va jamiyatda mustahkam o'rin egallashlari uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishiga aytish joizki, so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning natijasi o'laroq milliy parlamentimizda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, 32 foizni tashkil etdi. Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 27 foizga, tadbirkorlik sohasida 25 foizga va oliy ta'limda 47 foizni tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda, ayollarning taqdiri, buguni va kelajagi uchun davlat siyosati darajasidagi yuksak e'tiborning ifodasi bo'lgan bunday sharoitlar va imtiyozlar mamlakatimiz tarixida hali bo'lmagan. Bugun opa-singillarimiz qalbida jo'sh urayotgan shukronalik va yurtidan, yurtboshidan minnatdorlik hissi amaliy faoliyatimizga ko'chib, har bir sohada yuksak natijalarga erishishga ruhlantirmoqda. Zero, bugun Prezident ishonchi va mehridan ayollarning qaddi baland, e'zoz va ehtiromidan ruhi tetikdir. Shuningdek, jamiyatimizda xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining huquqiy vakolatlarini kengaytirish, faoliyat samaradorligini yanada oshirishga ham katta e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda xotin-qizlarning salmoqli qismi nodavlat notijorat tashkilotlarining ta'lim, ayollar huquqlari, reproduktiv salomatlik, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, atrofmuhitni himoyalash kabi sohalarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, inson huquqlariga oliy qadriyat sifatida qaralayotgan yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash uchun barcha huquqiy asoslar, shart-sharoitlar mavjud. Jumladan, vakillik organlariga oid saylov qonunchiligida ayollarga imtiyozlar belgilangan. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunda xotin-qizlar soni siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida 30 foizini tashkil etishi lozimligi qayd etilgani ham fikrimizni yaqqol isbotlaydi. Quvonarlisi shundaki, yurtimiz ayollari nafaqat yirik mutaxassis, balki senator yoki deputat, olim, rahbar sifatida mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilib kelmoqda. "Xotin-qizlarga e'tibor hamma vaqt barcha sa'y-harakatlarimiz markazida bo'lishi, hammamizning vazifamizga aylanishi kerak", – dedi davlatimiz rahbari. Oilaga e'tibor, aslida, bu o'zligimizga e'tibordir. O'tgan yillar mobaynida bu borada muayyan ishlar amalga oshirilgan. Biroq shu paytgacha xotin-qizlar manfaatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha samarali mexanizm yaratilmagan.[7]

XULOSA. Ushbu ma'lumotlar orqali O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar teng huquqliligining kafolatlari, jamiyat hayotidagi o'rni, davlat boshqaruv sohasidagi faoliyatlari, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin



qizlar faolligini oshirishga doir bosqichlarni o'rganish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

- jamiyatda shakllangan “ayollarga xos kasblar” tushinchasini muomaladan chiqarish yoki uning turlarini kengaytirish, erkin kasb tanlashga imkon yaratish;
- uy ishlari, farzand tarbiyasi kasbiy faoliyatga to'siq bo'lmasligi uchun masofadan turib ishlash o'qish faoliyatini yo'lga qo'yish;
- xotin -qizlarda ijodkorlikni rag'batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish.
- huquqiy ta'limda xotin-qizlar savodxonligini oshirish maqsadida huquqiy ta'lim berish loyihalarni yo'lga qo'yish,
- siyosiy faoliyat hamda davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini yanada oshirish,
- oilaviy munosabatlarda tenglik prinsipiga asoslangan holda oiladagi kelishmovchilik va ziddiyatlarni murosasiz, kelishuv asosida hal etish;
- ilmiy izlanuvchi xotin –qizlarni ta'lim olishiga sharot yaratish va ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash
- Xotin –qizlarning haqiqatda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini tahlil qilish va ularga amaliy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-o-zbekistonda-lider-ayollarning-faoliyatini-yanada-barqarorlashtirish-muammolari>
2. <https://islomkarimov.uz/en/news/ayolni-uluglamoq-vatanni-hayotni-uluglamoqdeganidir-islom-karimov> 07.03.2019
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 18- fevraldagi PF-5938-son Farmoni
4. <https://daryo.uz/2019/03/07/shavkat-mirziyoyev-ayollarning-jamiyatdagi-orniniozbekiston-erishayotgan-yutuqlardagi-beqiyos-hissasini-hech-narsa-bilan-olchabbolmaydi/>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/jamiyatda-xotin-qizlar-va-ularning-ijtimoiy-faolligi/viewer>
6. <http://www.uzbekembassy.in/xotin-qizlarni-qollab-quvvatlash-va-oila-institutini-mustahkamlash-sohasidagi-faoliyatni-tubdan-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida/?lang=uz>
7. XOTIN-QIZLARNING MUNOSIB O'RNI BOR JAMIYAT YUKSALADI/ O'rinov Telman Eshbayevich, (Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzuridagi “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i)
8. <http://cyberleninka.ru/article/n/yangi-davrda-o-zbekistonda-xotin-qizlar-rolining-rivojlanish-bosqichlari/viewer>
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 29-yalpi yig'ilishi hujjatlari.
12. <https://lex.uz>. O'zbekiston qonunchiligi



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

МЕХНАТ SAMARADORLIGI VA IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARINING O'ZARO ALOQADORLIGI

Anvarova Lobar Sherzod qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
Tel:+998991234400
anavarovalobar94.ltd.com

Annotatsiya. Maqolada mehnat samaradorligi va iqtisodiy taraqqiyot omillarining o'zaro aloqadorligi masalsi tahlil qilingan. Iqtisodiy taraqqiyot mamlakat iqtisodiyotining mahsuldorligi va samaradorligining oshishi, barqarorligi va raqobatbardoshligining mustahkamlanishi, jamiyat ehtiyojlariga mutanosibligining yuksalishiga xizmat qilishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy taraqqiyot, mehnat samaradorligi, jamiyat ehtiyojlari, raqobat, moliyaviy kapital, obligatsiyalar, depozitlar.

Mehnat samaradorligi nafaqat muhim iqtisodiy vazifalarni bajarishni ta'minlovchi, balki iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini jadallashtiruvchi manba hamdir. U iqtisodiy taraqqiyotning barcha omillarini optimallashtirish, ushbu omillarni ijtimoiy manfaatlar sari yo'naltirish imkonini beradi. Xuddi shuning uchun ham jahonning barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida mehnat samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu nazariy xulosaning barcha asoslarini, mehnat samaradorligi va iqtisodiy taraqqiyot omillari o'rtasidagi aloqadorlik xarakterini batafsil tahlil qilamiz.

Iqtisodiy taraqqiyot mamlakat iqtisodiyotining mahsuldorligi va samaradorligining oshishi, barqarorligi va raqobatbardoshligining mustahkamlanishi, jamiyat ehtiyojlariga mutanosibligining yuksalishi jarayonidir. U mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish darajasi o'sishi, investitsiyalar va infratuzilma ravnaqi, ishsizlikning kamayishi yoxud maqbul tus olishi, pirovardida esa aholi turmush darajasining yaxshilanishi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy taraqqiyotga eltuvchi omillar talaygina. Ular orasida ayrimlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, iqtisodiyot rivoji ko'p jihatdan mavjud ishchi kuchining miqdori va sifatiga borib taqaladi. Aksar publitsistik manbalarda ishchi kuchi deganda iqtisodiyot sohalarida mashg'ul bo'lgan yoki jalb etilishi mumkin bo'lgan 16-60 yoshdagi kishilar nazarda tutiladi. Iqtisod ilmi nuqta nazaridan esa "ishchi kuchi" deganda inson emas, uning mehnat qobiliyatlari yig'indisi nazarda tutiladi. "Ishchi kuchi, insonning mehnat qobiliyati - bu uning ehtiyojlari, jismoniy, intellektual va tashkilotchilik qobiliyatlari, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida qo'llaniladigan ko'nikma va tajribalari yig'indisidir". Uning sifati mehnat qobiliyatiga ega kishilarning bilim darajasi va malakasi bilan belgilanadi. Mamlakatda bunday kishilar qancha ko'p bo'lsa, iqtisodiyotni yuksaltirish va raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari shuncha katta bo'ladi.

Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi yana bir omil – mavjud tabiiy resurslar hajmidir. "Ma'lumki, tabiiy resurslar deganda tirik va notirik tabiatga oid bo'lgan va insonning moddiy hamda madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlatiladigan obyektlar, tabiiy muhit elementlari nazarda tutiladi. Bu resurslarning ayrimlari (masalan, minerallar, yer resurslari) tiklanmas, boshqalari (o'simliklar va hayvonot olami bilan bog'liq resurslar) tiklanuvchan hisoblanadi. Tabiiy resurslarning yana bir turi (ekin maydonlari, o'rmonlar, suv resurslari) to'liq tiklanmaydigan (ya'ni iste'mol maromidan sustroq tiklanadigan) obyektlar turkumiga kiritiladi". Mamlakatning tabiiy resurslari uning iqtisodiy rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi, chunki ular sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining real imkoniyatlarini belgilab beradi. Masalan, neft, gaz, ko'mir, metallar, yog'och va suv resurslari kabi tabiiy resurslarning mavjudligi ularni qazib olish, qayta ishlash va eksport qilishni osonlashtiradi. Qulay iqlim sharoiti, unumdor tuproq qishloq xo'jaligi rivojiga, go'zal tabiat manzaralari esa turizm industriyasi ravnaqiga xizmat qiladi. Biroq, tabiiy resurslarning shunchaki mavjudligi har doim ham iqtisodiy rivojlanishni kafolatlayvermaydi. Buning uchun ularni samarali boshqarish va oqilona



sarflash zarur. Tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish yoki ularni yetarli darajada diversifikatsiya qilmaslik iqtisodiyotning bir yoki bir nechta resurslarga qaram bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy ravnaq moliyaviy kapitalni taqozo etadi. Moliyaviy kapital jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalar, banklar va investorlarning daromad olish uchun iqtisodiyotga sarmoya sifatida kiritishi mumkin bo'lgan mablag'lari miqdoridan tarkib topadi. Odatda u turli investitsiyalar, aksiyalar, obligatsiyalar, depozitlar va boshqa moliyaviy vositalarda o'z ifodasini topadi. Moliyaviy kapitalning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri nihoyatda sezilarli. Dastlab, u kompaniya va tadbirkorlarga biznesning o'sishi va rivojlanishi uchun zarur resurslarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari, moliyaviy kapital iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladigan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish, mavjud infratuzilmani takomillashtirish, turli iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda qo'l keladi.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot omillarini yuksaltirish, ulardan oqilona foydalanishga bo'lgan intilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, bu yurtlarda ishchi kuchi miqdori va sifati mamlakatning iqtisodiy o'sishi va jahon iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanmoqda. Shu boisdan iqtisodiyotning turli sektorlarida mashg'ul bo'lgan kadrlarning ma'lumoti, kasbiy mahorati va malakasini oshirish masalalariga e'tibor ortib bormoqda. Bu maqsadda barcha rivojlangan mamlakatlarda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta o'qitishga mo'ljallangan o'quv kurslari tashkil qilish amaliyoti keng ildiz otmoqda. Keyingi yillarda ishsizlik muammosini tizimli ravishda hal qilish choralari ham intensivlashdi. E'tiborli jihati shundaki, taraqqiy topgan yurtlarda ishchi kuchi miqdorini ko'paytirish, sifatini oshirish tadbirlari davlat tomonidan qat'iy muvofiqlashtirilmoqda. Ayrim G'arbiy Yevropa mamlakatlarida hatto ishchi kuchi miqdori va sifati o'zgarishining istiqbollari doir ilmiy bashoratlar ham tayyorlanmoqda. Masalan, Angliyada bu vazifalar bilan Uorvik Universiteti Bandlikni tadqiq etish instituti (Institute for Employment Research at Warwick University), Germaniyada - Mehnat Federal instituti huzuridagi Bandlik va kasblarni tadqiq etish instituti (Institute for Employment and Occupational Research at the Federal Institute of Labour) shug'ullanmoqda.

Yevropa mamlakatlarida tabiiy resurslardan foydalanishni optimal-lashtirish masalalari ham strategik ahamiyat kasb qilmoqda. Xususan, neft, gaz va ko'mirdan ekologik talablarga amal qilgan holda foydalanish, suv, shamol va quyosh energiyasini qo'llash imkoniyatlarini kengaytarish odat tusiga kirmoqda. Yer resurslarini kamroq tasarruf etib, ko'proq don, sabzavot, meva, sut va go'sht kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga intilish avj olmoqda. Hatto iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda tabiiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish maqsadida Yevropaning manzarali landshaftlari, tog'lar, ko'llar, plyajlar kabi tabiiy resurslar turizmni rivojlantirish omiliga aylantirilmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyotning yana bir omili - moliyaviy kapital Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy faoliyatning turli turlarini mablag' bilan ta'minlash, iqtisodiy faollikni kuchaytirish manbaiga aylantirilgan. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida moliyaviy kapital kompaniyalar va jismoniy shaxslarni qarz mablag'lari bilan ta'minlash, yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish uchun sarflanmoqda. U kichik va o'rta korxonalarini rivojlantirish, iste'mol kreditlari berish, ijtimoiy dastur va loyihalarni qo'llab-quvvatlashda ham muhim o'rin tutmoqda. Umuman olganda, Yevropa mamlakatlarida moliyaviy kapital iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, iqtisodiyot subyektlarini qo'llab-quvvatlash, aholi turmush darajasini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Какушкина М. А. О трактовке экономической категории “рабочая сила”.// Социально-экономичес-кие явления и процессы, 2009, №4.- 61-с.
2. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O'zbekistondagi ekologik muhitga ta'siri.- T.: Voris-nashri-yot,2021.- B.21.
3. Вишневецкая Н.Т., Зудина А.А. Профессиональная структура рабочей силы в странах Европы: о чем свидетельствуют прогнозы?// Вестник международных организаций: образование, наука, новая экономика, 2017, №4.- 112-с.



Boymurodov Zohid Shokirovich,
Qarshi davlat universiteti falsafa fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Telefon: +998999597257
boymurodovzoxid@26.com

Annotatsiya. Maqolada turmush tarzining milliy xususiyatlari, shakllari haqidagi falsafiy fikr-mulohazalar keltirilgan. Turmush tarzining murakkab xarakterga ega fenomi sifatida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Turmush tarzi, sharqona turmush, g'arbona turmush, turmush darajasi, turmush sifati, ijtimoiy taraqqiyot.

Turmush tarzi ancha murakkab tarkib va xarakterga ega. Ayni paytda turmush tarzini bir necha rakursda o'rganish va tasniflash mumkinligini ham e'tirof etib o'tmoq lozim. Jumladan, turli sivilizatsiyalarning inson hayotiy faoliyatiga ta'siri haqida gap ketganda odatda sharqona va g'arbona turmush tarzi tilga olinadi. Sharqona turmush tarzi deganda kishilarning Sharq qadriyatlari va jamoaviylik tamoyillariga asoslangan xulq-atvori va muomalasi nazarda tutiladi. Undan farqli o'laroq, g'arbona turmush tarzi G'arb sivilizatsiyasi taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan norma va qadriyatlar, xususan individuallik tamoyillariga tayanadi.

Ham sharqona, ham g'arbona turmush tarzi shu sivilizatsiyalar negizida tarixan shakllangan millatlarning turmush tarzlariga tasniflanadi. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, milliy turmush tarzi – Sharq yoki G'arb sivilizatsiyalari ta'sirida bunyod bo'lgan turmush tarzining konkret ifodasidir. U muayyan jamiyatda qaror topgan ijtimoiy xulq-atvor va shaxslararo munosabatlar normalarini anglatadi.

O'z navbatida, milliy turmush tarzi ham turli shakllarga ega. U jamiyatda mavjud bo'lgan va millatga mansub turli guruh (shu jumladan yoshlar), tabaqa, sinflar turmush tarzidan tarkib topadi. Bu shakldagi turmush tarzlarining barchasida umumiylik va xususiylik dialektikasi yorqin namoyon bo'ladi. Bir tomondan, u umumiylikka (milliy turmush tarziga) xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassam qiladi. Ikkinchi tomondan esa, har bir ijtimoiy guruh turmush tarzi xususiy, faqat shu guruh vakillari hayotiy faoliyatiga xos bo'lgan jihatlardan tarkib topadi. Biroq qaysi subyektning turmush tarzi xususida gap ketmasin, u biz yuqorida bayon etgan elementlardan tarkib topadi.

Turli obyektlarga xos bo'lgan turmush tarzi mazmuni va dinamikasini o'rganib borishning ilmiy-nazariy ahamiyati katta, albatta. Bunday izlanishlar inson turmush tarzining o'zgarishi qonuniyatlarini aniqlab va anglab olish imkonini beradi. Biroq turmush tarzi bilan bog'liq tadqiqotlarning muhim amaliy jihatlari ham mavjud. Bu tadqiqotlar quyidagilarni aniqlab beradi:

- ijtimoiy taraqqiyot darajasini; inson turmush tarzining turli jihatlari tizimli ravishda tahlil qilish orqali jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivoji meyorini aniqlash mumkin. Jamiyat a'zolarining turmushi optimal shaklda kechayotgan bo'lsa, bu holat ijtimoiy taraqqiyotning maqbul maqsadlarga yo'nalganligidan, uning to'g'ri yo'nalishda kechayotganidan dalolat beradi. Har qanday ijtimoiy taraqqiyot ham turmush tarziga oqilona tus beravermaydi. Aks holda, bugungi kunda taraqqiy topgan jamiyatlarda nuqul ijobiy turmush tarzlar hukm surgan bo'lardi. Oqilona va optimal xarakterga ega bo'lgan, sog'lom shakda kechayotgan turmush tarzi faqat jamiyat a'zolari manfaatlariga mutanosib bo'lgan taraqqiyot shakli va maromi mahsulidir;

- inson kapitali ahvolini; turmush tarzini o'rganish orqali jamiyat a'zolarining dunyoqrashiga, uning bilimlari va malakalari xarakteriga, ruhiy ahvoriga baho bersa bo'ladi. Agar jamiyat a'zolarining turmush tarzi asosan pozitiv elementlardan tarkib topgan bo'lsa, bunday holat sotsiumda sog'lom ijtimoiy-ruhiy vaziyat shakllanganidan, unda madaniy saviyasi yuqori kishilar ko'pligidan, kishilarning bilim va malakalari farovonlikni yuksaltirish borasida qo'llanilayotganidan dalolat beradi. Inson kapitali notavon ahvolda bo'lgan jamiyatlarda pozitiv turmush tarzining shakllanishi qiyin kechadi;

- “inson-jamiyat” munosabatlari xarakterini; turmush tarzi insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini ayon etuvchi mezondir. Jamiyat a'zolarining turmush tarzi ijtimoiy manfaatlariga mos bo'lsa, bu holat insonning o'zi istiqomat qilayotgan jamiyatdagi taraqqiyot maqsadlarini, milliy ehtiyoj va manfaatlarini anglab yetganidan va uni qabul qilganidan, milliy g'oya uning e'tiqodiga aylanganidan dalolat beradi. Kishilar turmush tarzi bilan ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi uzilishning



mavjudligi, turmush tarzida ijtimoiy manfaatlar o'z ifodasini topmayotganligi odamlarning jamiyatga ishonchi pastligidan darakdir;

- “jamiyat-inson” munosabatlari xarakterini; turmush tarzi jamiyatning insonga bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi mezondir. Jamiyatda oqilona turmush tarzining keng ildiz otgani unda inson huquq va manfaatlar ustuvorligi ta'minlanganidan, fuqarolik jamiyati institutlari bu borada real natijalarga erishganidan, turli ijtimoiy illatlarga qarshi amalda kurashilayotganidan dalolat beradi. Inson qandaydir noma'lum maqsadlarning, tor davralar manfaatlarini ro'yobga chiqarishning “murvatiga” aylanib qolgan, uning haq-huqularining poymol etilishi odat tusini olgan, ijtimoiy illatlar botqog'iga botib qolgan jamiyatda pozitiv turmush tarzi mavjud bo'lishi mumkin emas.

Yuqoridagi mulohazalardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi. Turmush tarzi – insonning individual yoxud jamoaviy hayotiy faoliyatining muayyan shaklini ifodalovchi tushunchadir. Inson hayotiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari mehnat jarayonida, jamiyat ishlarida ishtirok etish chog'ida, maishiy turmushda, kundalik odat va ko'nikmalar asosida, bo'sh vaqtda amalga oshirilgan faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Inson, ijtimoiy guruh, tabaqa, sinf, millat turmush tarzi ana shu faoliyat turlarining muayyan konfiguratsiyalaridan tarkib topadi. Faoliyat turlarining ijobiy yoki salbiy, progressiv yoki regressiv xakteri turmush tarzining pozitiv yoki negativ xakterini belgilab beradi.

Inson turmush tarzi stixiyali ravishda qaror topadigan fenomen emas, albatta. Uning shakllanishi va rivojlanishi ma'lum qonuniyatlarga tayanadi. Bir tomondan, turmush tarzi o'z evolyutsiyasiga ega. U turfa tabiiy shart-sharoitlar, kishilik jamiyatining turli bosqichlari xos bo'lgan xususiyatlar, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida kechgan tendensiyalar ta'sirida shakllanadi. Ikkinchi tomondan, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning har bir davrida bir emas, bir necha turmush tarzlari hukm suradi. Bir davrda yashagan turli ijtimoiy guruh, tabaqa, sinf vakillarining turmush tarzida tafovutlarni keltirib chiqarayotgan qator determinantlar mavjud. Har qanday ijtimoiy guruh, shu jumladan yoshlar turmush tarzidagi o'zgarishlarni tadqiq qilishda ushbu ikki qonuniyat nazarimizdan chetda qolmasligi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Силина С.Н., Ступин В. Ю. От финансовой грамотности к финансовой культуре.// Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. Серия: Филология, педагогика, психология, 2017, №4.- 72-с.
2. Obilov M.R. Aholining moliyaviy savodxonligi: mazmuni, ahamiyati va asosiy jihatlari.// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2019, №1.- 7-b.
3. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O'zbekistondagi ekologik muhitga ta'siri.- T.:Voriz-nashriyot, 2021.- B.34-35.
4. Choriyev S. Individualizm – asr balosi va jamiyatimiz taraqqiyotiga xavf sifatida.// Falsafa va huquq, 2021, №1.- 22-b.



YOSHLARDA MEDIAMADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI

Manzura Radjabova Xurramovna

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti
Ijtimoiy- gumanitar fanlar kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda mediamadaniyatini shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Hozirgi axborotlashgan davrda yoshlarda mediamadaniyatni shakllantirish millat ma'naviyatini yuksaltirishning muhim omili ekanligidan kelib chiqib, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: axborot, ta'lim, axborot madaniyati, ijtimoiy rivojlanish, globallashtirish, ijtimoiy, inqiroz, axborot huruji.

Bugungi kunda yuz berayotgan globallashtirish jarayonlarida axborot almashinuvi asosiy omilga aylanib, jamiyat hayotining barcha qatlamlarini qamrab olmoqda. Darhaqiqat, axborot jahon miqyosida haqiqiy kurash maydoniga aylanib, faol kurashning "axborot huruji" deb ataluvchi shakli namayon bo'lmoqda, bu kurashda yoshlarda mediamadaniyatini shakllantirish bilangina himoyalaniş mumkinligini ko'rsatadi. Bu jarayonda jamiyat vakillari, ayniqsa, yoshlarda axborot madaniyatini rivojlantirishning ilg'or tendensiyalarini shakllantirish, axborot xavfsizligidan himoyalaniş usullarini aniqlash va ular bilan bog'liq omillar muhim o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar tomonidan nazariy va fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda, bu tadqiqotlar mediamadaniyat hodisasini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, ta'limni axborotlashtirish va mediata'lim texnologiyalarini keng joriy etishda yoshlarning mediamadaniyatini shakllantirishning falsafiy-pedagogik tomonlari, zararli axborotlarning inson ongi, tafakkuri va ma'naviyatiga ta'siri, axborot huruji, axborot terrorizmi, axborot qurollari, axborotdan himoyalanişning huquqiy va psixologik tomonlari uning mazmun-mohiyatini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar bugungi kunda e'tiborga loyiqdir. Shu jumladan, zamonaviy mediamadaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-texnikaviy jihatlarini ijtimoiy-falsafiy tomondan o'rganish bugungi kunning talabidir.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz." [1] Shuningdek, bugungi kunda yoshlar tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ayniqsa, ularning ongi va qalbini egallashga qaratilgan axborot tahdidlaridan samarali himoya qilish tendensiyalari, usul va mexanizmlarini falsafiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo olimlari o'tkazgan tajribalarga va ilmiy izlanishlarga ko'ra, insoniyat axborot madaniyatini o'zgartirishni tarixiy meros asosida va mavjud global muammolar tizimli hal qilishi natijasida erishish mumkin. Chunki, ular mediamaydonda axborot madaniyatining tarkibiy elementlari va uning namoyon bo'lish shaklidir.

Mediamadaniyat bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilish ehtiyoji tobora kengayib bormoqda. Kanadalik madaniyatshunos va faylasuf Marshall Makluyen "media – bu inson hissiyotlarining davomidir". [2] deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat bugungi axborot makonida media inson hissiyotlar orqali ta'sir yo'lini to'g'ri deb baholaydi. Chunki, boshqa usullardan ko'ra hissiyotlar orqali ta'sir etish samarali va yuqori natijalar beradi. Axborotlarning inson dunyoqarashiga va madaniyatiga ta'siri muammolar chet ellik olimlari D.Bell, Evilen Tofler, S.M.Sterdenko, Milligan, Tey Vonlarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Respublikamiz olimlari ham axborot jamiyati va uning asosiy kategoriyalarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilib, fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirishning ustuvor yo'nalishlari tavsifini ishlab chiqdilar.

Jumladan, professor J.Yaxshilikov fikricha "Bugun axborot iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o'zida uni iste'mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakteridagi axborot himoyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur". [3] Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki bugungi kun yoshlar mediamadaniyatni shakllantirishlari uchun mediaolam to'g'risida ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak.



Mamlakatimiz yoshlarining mediamadaniyatining rivojlantirish tendensiyalarini quyidagi bosqichlar orqalida ifodalash mumkin. Xususan: tushunish birinchi bosqichdir; axborot madaniyati muammolarini bartaraf etishning o'ziga xos imkoniyatlarini, oqilona usullarini, konstruktiv vositalarini topish, – ikkinchi bosqich; xalqaro darajadagi axborot madaniyati natijalarini o'rganish: uchinchi bosqich: - aloqa, infratuzilma va xalqaro hamkorlik tashkilotlarining institutsional tizimini shakllantirish va muvofiqlashtirish.

Bu bosqichlar ichki tarixiy-mantiqiy ketma-ketlik va o'zaro bog'liqlikka ega bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu bosqichlarning o'ziga xosligi obyektiv asoslar va subyektiv omillarning birlashtirish imkoniyatida namoyon boladi: obyektiv asoslar: 1) mahalliy, milliy, mintaqaviy, global muammolarning mavjudligi; 2) mediamadaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda insoniyat ehtiyojlari va manfaatlarining tarixiy va ijtimoiy voqeliklarga muvofiqligi; 3) insonparvarlik tamoyillari va ma'naviy-axloqiy me'yorlar asosida mediamadaniyatini rivojlantirish zarurligi; 4) davlatlarning global mediamadaniyati muhitiga moslashishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlarning mavjudligi.

Subyektiv omillar: 1) globallashuvi va uning salbiy oqibatlarining kuchayishi tahdidi va unga qarshi ko'rash zarurligi; 2) mediamadaniyatni rivojlantirishda jamoatchilikni rolini oshirilishi; 3) axborotlashyotgan jamiyatda texnologik madaniyatini shakllantirishda ta'lim va ommaviy axborot vositalari faolligini oshirish;

O'z navbatida, mediamadaniyatining obyektiv asoslari va subyektiv omillarining umumiy mohiyatini aniqlash va baholash inson ongi va tafakkuri madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bilimlar tizimining umumlashmasiga bog'liq. Ya'ni, yoshlarning mediamadaniyatiga munosabati jarayonida shakllangan tafakkur madaniyatining rivojlanish darajasi jamiyat axborot madaniyatining muhim ko'rsatkichi sifatida baholanishi kerak. Media bosqichlarini qiyosiy o'rganishdan asosiy maqsad tarixiy moddiy va ma'naviy qadriyatlar, an'analari, tajribalari asosida yoshlarda jamiyatning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. Chunki ilmiy dunyoqarash, bir tomondan, insonning ijtimoiy borlig'ini, ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilsa, ikkinchi tomondan uning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim tartibga solish vazifasini bajaradigan axborot makonidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, **birinchidan**, hozirgi vaqtda turli ko'rinishdagi axborotlarning mavjudligi: globallashuv, universallashtirish jarayonlarining kuchayishi butun insoniyat qadriyatlarini o'zgartirish uchun obyektiv shart-sharoitlarni yaratadi; **ikkinchidan**, axborotlar globallashuvining hozirgi sharoitida uning yoshlar ijtimoiy-madaniy hayotiga salbiy ta'siri haqida tashvishlanishdan amaliy qarshilik ko'rsatishga o'tish dolzarb va muhimdir. Ya'ni, aksariyat tahlilchilarning fikricha, yoshlarda tarixiy meros asosida shakllangan ma'naviy qadriyatlar, madaniy merosga va milliy o'zlikni saqlashga moyillikni kuchaytirish zarur; **uchinchidan**, yoshlarning mediamadaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy omillari, g'oyaviy-nazariy asoslari va tendensiyalari tahlil qilinib, nazariy-uslubiy xulosalar chiqariladi. Mediamadaniyatini rivojlantirish tendensiyalari va mafkuraviy-nazariy asoslari bu - ijtimoiy munosabatlarni o'rganadigan fanlar majmuasi: muhandislik, ijtimoiy-gumanitar fanlar, siyosiy fanlar, axborot madaniyatining mavqei va vazifalarini tizimli o'rganish, yangi bilim sohalarining shakllanishiga, ularning integratsiyalashuviga va "hamkorligi"ga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: "O'zbekiston", 2016.
2. Маршалл Маклюен. Понимание медиа: Внешние расширения человека. Москва. 2003
3. Yaxshilikov J.Ya. Muhammadiyev N.E. Falsafa. Darslik. Samarqand.: SamDU nashryoti. 2021. 667-bet.
4. Qo'shayev U. Axborot iste'mol madaniyati. - Toshkent: "Ekstremum-press" nashriyoti, 2013. - 44 b.
5. Quronov M. Biz tushungan haqiqat. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –48 b.
6. NURMATOVA, UMIDA J. "EXISTENTIAL AND COMMUNICATIVE FUNDAMENTALS OF READING." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 9 (2021): 444-449.
7. NURMATOVA, UMIDA JALALLIDINOVA. "PHILOSOPHICAL AND EPISTEMOLOGICAL ESSENCE OF READING A BOOK." International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 1.1 (2021): 145-152.



YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI: ISOHATLAR VA
IMKONIYATLAR
(Finlandiya ta'lim tizimi misolida)

Sattarov Inomjon Odilbay o'g'li
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda, O'zbekistondagi ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan davlat dasturi darajasi olib borilayotgan islohotlarning falsafiy tahlili yoritilgan. Shuningdek, Oliy ta'lim muassasalarining ilg'or yutuqlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, zamonaviy inovatsion ta'lim tizimi bilan taminlanishi, yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Prezidentimizning Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq degan fikirlarixam bejizga emas.[1] Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yana-da takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi da'vatkor nutqi ham ana shundan dalolat beradi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali **O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans** poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.[2]

Shakl va mazmun mohiyati. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti oxirgi to'rt yilda ochiqlik sharoitida, jahondagi bir necha mashhur universitetlarning ilmiy, ta'limiy va tadqiqot faoliyati, shuningdek, xalqaro ta'lim dasturlari tizimi bilan hamkorlikda ish olib bordi. Bu esa bizni ta'lim jarayonining shakl hamda mazmunini kengaytirish mohiyatini anglashga undaydi. Mazkur faoliyat O'zbekistonning iqtisodiy hayotidagi jadal yangilanish hamda o'zgarishlar sharoitida ta'lim va fanni innovatsiyalarga yo'naltirilgan holda rivojlantirish maqsadlariga to'la mos keladi. Bu borada yangi ta'limiy paradigmalarni, tadqiqot universitetlari tomonidan mamlakatda inson kapitalini oshirish bo'yicha olimlar hamda talabalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni tushunib yetish kerak bo'ladi. Ayni davrda O'zbekiston oliy ta'lim sohasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bilim dargohlarining qiyofasi o'zgarib, moddiy-texnika bazasi yaxshilanyapti, ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kuchaytirilmoqda, jumladan, professor-o'qituvchilarning daromadlari ham ortyapti. Innovatsiya yo'nalishidagi alohida davlat tuzilmalari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarida ham yangi



bo‘linmalar ochilmoqda. Bularning barchasi oliy ta’limga bo‘lgan yondashuvni o‘zgartirib, uning sifati hamda darajasini ko‘tarishga xizmat qilishi aniq. Jumladan, bizning institutda ham. Shu o‘rinda Prezidentimizning 2016-yil dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida bo‘lib o‘tgan olimlari ziyolilar bilan uchrashuvi yodga tushadi. O‘shanda davlat rahbari mamlakatimiz sanoati, agrar tarmog‘i va umuman, iqtisodiyotida xorijda ishlab chiqarilgan zamonaviy texnologiya hamda jihozlarni joriy etish va ulardan foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratgandi. O‘zbekistondagi yirik ta’lim dargohining rahbari sifatida men bu fikrni o‘zimga hamda institutimiz jamoasiga ham tegishli, deb qabul qildim. Negaki, gap raqamli yechimlar asosida ishlaydigan murakkab texnologik komplekslardan tortib, to oddiy muhandislik ishlanma va uskunalarigacha chetdan keltirilayotgani haqida borar edi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги ПҚ-5040-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/5344692>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.01.2021 yildagi O‘RQ-668-son
5. Yaxshilikov J.Ya. Muhammadiyev N.E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. –T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot. 2018-yil. –B.516-517.
6. NURMATOVA, UMIDA JALALLIDINOVA. “PHILOSOPHICAL AND EPISTEMOLOGICAL ESSENCE OF READING A BOOK.” International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 1.1 (2021): 145-152.
7. Jalolidinovna, Nurmatova Umida. “Mutolaa-As an Important Attribute of Human Life.” Kresna Social Science and Humanities Research 4 (2022): 34-35.



СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДАГИ ТУТГАН ЎРНИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ШАНХАЙ ҲАМКОРЛИК ТАШКИЛОТИ БИЛАН МАДАНИЙ-ГУМАНИТАР СОҲАДАГИ ҲАМКОРЛИГИНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Нуриббетов Рахматулла Ибрагимович

С.ф.ф, доктори (PhD,) Тошкент давлат

шарқшунослик университети мустақил тадқиқотчиси

E-mail: n.rakhmatulla1977@gmail.com

Аннотация. Мақолада Шанхай ҳамкорлик ташкилот и (ШХТ) фаолиятида маданий-гуманитар масалаларнинг куўптомонлама ҳамкорликни ривожлантиришдаги ўрни ва роли, Ўзбекистон Республикасининг ШХТ билан бу йўналишдаги алоқаларининг асосий жиҳатлари тадқиқ қилинган. Муаллиф республика ШХТ доирасида “юмшоқ куч” ва “халқ дипломатияси” воситаларидан янада унумли фойдаланиш заруратини асослаб берган.

Калит сўзлар: Шанхай ҳамкорлик ташкилоти, “юмшоқ куч” дипломатияси, халқ дипломатияси, маданий-гуманитар алоқалар, ташқи сиёсат.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА С ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИЕЙ В КУЛЬТУРНО-ГУМАНИТАРНОЙ СФЕРЕ

Abstract: The article explores the cultural and humanitarian dimension of multilateral cooperation within the Shanghai Cooperation Organization (SCO), as well as the key aspects of interaction between the Republic of Uzbekistan and the SCO in this area. The author highlights the urgency of proactive “soft power” and “public diplomacy” as part of the republic’s strategy towards this organization.

Опорные слова и понятия: The Shanghai Cooperation Organization soft power diplomacy, public diplomacy, cultural and humanitarian relations, foreign policy

Шанхай ҳамкорлик ташкилотиди (ШХТ) маданий-гуманитар ҳамкорлик ўзига хослиги билан ажралиб туради. Дунёнинг бошқа кўплаб минтақаларида шаклланган ташкилотлар ва ҳамкорлик механизмларидан фарқли ўлароқ, ШХТ маданий, диний ёки цивилизациявий умумийлик асосида шаклланмаган ташкилот. У ислом, христиан, конфуцийлик ва ҳиндуизм динларига таяниб инсоният тарихида муҳим роль ўйнаган цивилизациялар вакиллари бўлган мамлакатлардан таркиб топган. Шу сабабдан ҳам ШХТ Хартияси ишлаб чиқилганида “маданиятлар хилма-хиллигига ҳурмат” “Шанхай руҳи”нинг асосий тамойилларидан бири сифатида қайд этилгани бежис эмас.

Бугун кўплаб илмий доираларда “маданиятлар хилма-хиллиги” ШХТнинг ноёб жиҳатларидан бири сифатида келтирилади. Бизнингчаям, бу ташкилотнинг ўзига хос ютуғи, чунки “ҳамкорлик”, айниқса халқаро ҳамкорликнинг мақсади ҳам турли сифатлар бўйича ўзаро фарқ қилувчи субъектларни бир-бирига умумий манфаатлар атрофида ва ғоялар ёрдамида яқинлаштиришдан иборат.

Ташкилотда маданий-гуманитар соҳалардаги ҳамкорлик анча фаол бошланган. Унга аъзо давлатлар маданият вазирлари 2002 йилдаёқ, яъни тузилма шаклланганидан бир йилдан кейин, Пекин шаҳрида ўтказилган ва шундан эътиборан доимий тус олган. Мазкур йўналишдаги ҳамкорликнинг анча фаол бошланганини ҳатто ШХТни кўпроқ танқидий жиҳатдан ўрганган америкалик олим С.Арис ҳам таъкидлайди.¹

Буни ташкилотнинг маданият, фан, таълим, техника, соғлиқни сақлаш, ёшлар ва бошқа гуманитар соҳалардаги ҳамкорлигининг норматив-ҳуқуқий асослари ҳамда ишчи механизмларининг тез орада шаклланиши, шунингдек мазкур йўналишларда мунтазам тадбирларнинг ўтказилиш яхши аънаналарга айланганлиги тасдиқлайди.

¹ Stephen Aris. Russian-Chinese Relations through the Lens of the SCO”Russie.Nei.Visions”, No. 34, September 2008. <https://www.ifri.org/en/publications/notes-de-lifri/russieneivisions/russian-chinese-relations-through-lens-sco>



Гуманитар соҳада ШХТ доирасида илк норматив ҳужжат таълим соҳасидаги ҳамкорлик тўғрисидаги шартнома бўлиб, у 2006 йилда қабул қилинган. Кейinchalik, маданият (2007), соғлиқни сақлаш (2011 йил), фан ва техника (2013), жисмоний тарбия ва спорт (2018), туризм (2022) йўналишларида ҳамкорлик тўғрисидаги шартномлар, шунингдек бошқа ҳужжатлар, меморандумлар ва дастурлар қабул қилинган.

Шунингдек, 2007 йилдан бўён ШХТнинг Ёшлар форуми, 2007 йилда эса ШХТ университети¹ ҳам амал қилади. Шу билан бирга, ташкилот шафелигида мунтазам равишда маданият, таълим, спорт, соғлиқни сақлаш, ёшлар, хотин-қизлар фаолиятига тааллуқли йирик тадбирлар ташкиллаштириб борилади.

Шанхай ҳамкорлик ташкилотида шаклланган норматив-институционал база ва амалий ҳамкорлик тажрибаси ҳар бир аъзо давлат томонидан, айниқса маданий-гуманитар соҳаларда кўплаб қўшма тадбирлар, форумлар, анжуманлар, фестиваллар ва шу каби тадбирларни ўтказиш ташаббуси билан чиқиш ва уларни амалга ошириш имконини беради. Бунда айниқса аъзо давлатлар ташкилотга раислиги давридаги ташаббускорлиги ва фаоллиги катта аҳамият касб этади. Мана шундай тажриба ва амалиётнинг мавжудлиги мамлакатларга ўз миллий маданияти, тарихий, урф-одатлари, гастрономияси ва туристик салоҳиятини тарғиб қилиш орқали маданиятлараро алманишувига жуда муҳим ҳисса қўшиб келади.

Ўзбекистон Республикаси ШХТ билан маданий-гуманитар соҳаларда фаол ҳамкорлик қилади. Бу тенденция айниқса 2017 йилдан анча кучайган. Бу мамлакатимизнинг, бир томондан, ташқи сиёсатда “юмшоқ куч” воситалароига эътиборнинг кучайиши², бошқа томондан, умуман ШХТ билан ҳамкорлик масалаларига бўлган муносабатнинг ўзгариши билан белгиланади.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев ШХТнинг 2017 йилда Остонада бўлиб ўтган давлат раҳбарларининг учрашувида ташкилот фаолиятида халқ дипломатияси институтлари ўртасидаги ҳамкорликни ривожлантириш таклифини баён этган эди. Ушбу ташаббусни амалга ошириш доирасида 2018 йилнинг 26 июнида Давлат раҳбарининг ПҚ-3807-сонли Қарори Ўзбекистонда Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг Халқ дипломатияси маркази ташкил этилди ва қуйидагилар Марказ фаолиятининг асосий вазифалари ва йўналишлари этиб белгиланди:

- ШХТ мамлакатлари ўртасида ўзаро ишонч ва яхши қўшничиликни, миллатлараро ва динлараро тотувликни мустаҳкамлашга, цивилизациялараро мулоқотни кучайтиришга кўмаклашиш;

- ШХТ мамлакатлари билан маданий-гуманитар алоқаларни кенгайтиришда, делегацияларнинг ўзаро ташрифларини уюштиришда иштирок этиш;

- ШХТ мамлакатларининг фуқаролик жамияти институтлари, шу жумладан ёшлар ва хотин-қизлар ташкилотлари ўртасида дўстона ҳамкорлик муҳитини қарор топтириш учун шарт-шароитлар яратиш;

- ШХТ мамлакатлари ўртасида ахборот соҳасидаги ҳамкорликни ривожлантиришга кўмаклашиш, ахборот ресурсларини шакллантириш ҳамда ШХТнинг мақсадлари, вазифалари, фаолиятининг устувор йўналишлари ва асосий принципларини кенг тушунтириш мақсадида оммавий ахборот воситалари билан ҳамкорлик қилиш, ШХТ мамлакатларининг маданий-гуманитар соҳада эришган ютуқлари тўғрисида ахборот-тахлилий материаллар тайёрлаш ва уларни мунтазам чоп этиб бориш;

- ШХТ мамлакатлари ва уларнинг халқларини бир-бирига яқинлаштириш, ўзаро ишонч ва яхши қўшничилик руҳини мустаҳкамлаш мақсадида халқ дипломатияси воситаларидан фойдаланиш.³

Фикримизча, ушбу Марказнинг таъсис этилиши Ўзбекистоннинг ШХТ билан маданий-гуманитар соҳадаги ҳамкорлигида энг муваффақиятли лойиҳалардан бири бўлди. Биринчидан, Президент Ш.М.Мирзиёевнинг мазкур ташаббуси ШХТ доирасида халқ дипломатияси соҳасидаги ҳамкорликнинг сезиларли фаоллашуви ва институционаллашуви муҳим

¹ ШХТ Университети Россия ташаббуси билан ташкилотга аъзо мамлакатлар таълим муассасаларининг инновацион ҳамкорлик тармоғи сифатида тузилган. Университет ҳузурида муайян йўналишлар бўйича “бош университеталр” рўйхати шаклланган ва уларда “Минтақашануолик”, “Экология”, “Ахборот технологиялари”, “Энергетика”, “Нанотехнологиялар” факультетлари таъсис этилган.

² Таджиев, Ш. (2023). «Мягкая сила» во внешней политике Республики Узбекистан на современном этапе. in Library, 3(3), 3–237. <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/24084>

³ ПҚ-3807-сонли Қарори // <https://lex.uz/docs/3795314?ONDATE=29.12.2023>



ҳисса қўшди. Аслида халқ дипломатияси воситаларини қўллашга интилиш ШХТнинг “ирқий коди”да мавжуд, яъни у “Шанай руҳининг” маданиятлар хилма-хиллигига хурмат тамойил ўз ифодасини топган.¹ Шунга қарамасдан, 2018 йилга қадар ШХТ мамлакатлари билан бу йўналишда ишлашга ихтисослаштирилган муассаса, яъни халқ дипломатияси институти фақат Хитойда мавжуд эди. Бу - ШХТнинг яхши қўшничилик, дўстлик ва ҳамкорлик бўйича Хитой қўмитаси бўлиб, 2017 йилда ХХР раиси Си Цзиньпин ташаббуси билан тузилган ва унинг қароргоҳи Пекинда жойлашган.

Ўзбекистонда Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг Халқ дипломатияси марказининг муваффақиятли ва самарали фаолияти ШХТнинг бошқа мамлакатларида ҳам шу каби халқ дипломатияси институтларига бўлган интилишларни кучайтирди. Масалан, 2021 йил февралда Тожикистонда ШХТнинг дўстлик ва ҳамкорлик Маркази ташкил этилди. Бундан ташқари, Россия ва Беларусда ҳам шу каби ШХТнинг халқ дипломатияси муассасини тузишга бўлган қизиқиш мавжуд.

Иккинчидан, ушбу ташаббус “юмшоқ куч” воситалари орқали Ўзбекистоннинг ШХТдаги имижини янада мустаҳкамланиши ва нуфузининг ошишига хизмат қилмоқда. Бу айниқса мамлакатимизнинг 2021-2022 йиллардаги ташкилотдаги раислиги даврида яққол намоён бўлди. 2022 йил 11-12 май кунлари Тошкентда “Халқ дипломатияси – тараққиёт йўлида ўзаро ҳамжиҳатлик” шиори остида Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатларнинг Халқ дипломатияси форуми ўтказилди. Ташкилотга аъзо давлатлар парламентлари, халқаро тузилмалар, нодавлат ноtijорат ташкилотлари, шунингдек, илмий-таҳлил марказлари вакиллари билан иборат 120 дан ортиқ хорижий иштирокчилар қатнашган ушбу Форум ШХТ доирасида халқ дипломатияси институтини оммавийлаштиришга муҳим ҳисса қўшди. Анжуман доирасида спикерлар Ўзбекистоннинг ташкилотда маданий-гуманитар алоқаларни ривожлантиришга ҳиссасини ва ташаббускорлигини алоҳида таъкидлашди.²

Умуман олганда, Тошкент форуми ШХТ маконида кўп қиррали маданий-гуманитар ҳамкорликни мустаҳкамлаш бўйича бой фикрларни алмашиш учун ўзига хос майдон бўлди. Халқ дипломатияси умумий хавф-хатарлар ҳал этилиши йўллари биргаликда излаб топиш учун самарали восита бўлиб хизмат қилмоқда.³

Бошқа соҳалар каби, Ўзбекистоннинг ШХТдаги 2021-2022 йиллардаги раислик даврида маданий-гуманитар соҳаларда ташкилотга аъзо мамлакатлар ўртасидаги алоқаларни ривожлантиришга катта эътибор қаратилди. Хусусан, бу йўналишда ўнлаб тадбирлар, шулар жумласидан, маданият, спорт, туризм, соғлиқни сақлаш вазирлари учрашувлари муваффақиятли ўтказилди.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, Ўзбекистон раислигининг ташаббуси билан 2022 йил давомида ШХТнинг Туристик форуми, Аёллар форуми, ахборот-технология соҳасидаги ҳамкорликни ривожлантиришга қаратилган тадбирлар самарали ва юқори даражада ўтказилди. Табиийки, бу тадбирларда бўлиб ўтган муҳокамалар, мунозаралар ва эришилган келишувлар ташкилотнинг маданий-гуманитар соҳалардаги кун тартибининг сезиларли даражада бойилишига хизмат қилди.

2022 йил 16 сентябр куни Самарқандда ўтказилган ШХТнинг саммити якунлари бўйича қабул қилинган ҳужжатлар орасида ҳам маданий-гуманитар соҳаларга тааллуқли Ўзбекистон ташаббуслари ўз ифодасини топди. Булар, жумладан:

– ШХТга аъзо давлатларнинг узоқ муддатли яхши қўшничилиги, дўстлиги ва ҳамкорлиги тўғрисидаги шартнома қоидаларини 2023-2027 йилларда амалга ошириш бўйича комплекс ҳаракатлар режаси;

- ШХТга аъзо давлатлар ўртасида туризм соҳасидаги ҳамкорликни ривожлантириш тўғрисидаги битим;

- “ШХТнинг эзгу ният элчиси”нинг фаолият ваколатлари, функционал вазифалари ва молиявий йўриқлари кўрсатилган тегишли Низом;

– ШХТ мамлакатларининг ваколатли органлари ўртасида музей иши соҳасидаги ҳамкорлик тўғрисида меморандум;

– ШХТга аъзо давлатларнинг сунъий интеллектни ривожлантириш бўйича ҳамкорлиги

¹ <https://rus.sectso.org/20220511/835832.html>

² <https://rus.sectso.org/20220512/836100.html>

³ https://old.dunyo.info/cyrl/site/inner/halq_diplomatiyasi_umumiy_havf-hatarlar_%D2%B3al_etilishi_yollarini_birgalikda_izlab_topish_uchun_samarali_vosita_bolib_hizmat_qilmoqda-PVe



дастури;

– ШХТга аъзо давлатларнинг тиббиёт ташкилотлари ўртасида юқумли касалликларни профилактика қилиш ва даволаш масалаларида ҳамкорлик бўйича “йўл харитаси”;

– ШХТга аъзо давлатлар ўртасида устувор йўналишлардаги илмий-техник ҳамкорлик бўйича ҳаракатлар режаси (2022-2025 йилларда);

- ШХТ мамлакатларининг телемедицина соҳасидаги ҳамкорлиги концепцияси.

Умуман олганда, маданий-гуманитар алоқаларни ривожлантириш масалалари Ўзбекистоннинг ШХТ билан ҳамкорлигида муҳим ўрин тутди ва келгусида ҳам устувор йўналишлардан бири бўлиб қолади. Бу, энг, аввало, мамлакатимиз юритаётган фаол ва очик сиёсатида классик дипломатия билан бир қаторда, ноаънавий – маданий, туристик ва халқ дипломатияси воситаларидан унумли фойдаланишга бўлган саъй-ҳаракатларнинг ҳукумат томонидан фаол қўллаб-қувватланаётгани билан боғлаш мумкин. Бир вақтнинг ўзида, нодавлат ва нуҳукумат ташкилотлар, фуқаролик жамиятлари институтлари, зиёлилар, олимлар ва талабаларнинг турли халқаро маданий-гуманитар алоқаларда фаол иштирок этишлари ҳам ушбу йўналишнинг истиқболлигини белгилаб беради.

Бизнингча, ШХТнинг аъзо давлатлар, кузатувчилар ва мулоқот бўйича шерик мақомига эга мамлакатлар ҳисобига кенгайиб бориши улар ўртасида ўзаро ишонч ва ҳамкорликни мустаҳкамлашга эҳтиёжни янада кучайтиради. Бу ўз навбатида, Ўзбекистон учун ШХТ доирасида “юмшоқ куч” дипломатиясини янада фаол ва самарали амалга ошириш учун қўшимча имкониятлар яратиб бериши мумкин.



ОПТИМИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ННО В ОБЩЕСТВЕННОМ КОНТРОЛЕ В ПРОЦЕССЕ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ

Полина Пак

Национальный университет Узбекистана

***Аннотация:** Исследование фокусируется на оптимизации деятельности негосударственных некоммерческих организаций (ННО) в общественном контроле в процессе реформ в Узбекистане. Анализируются существующие правовые и организационные рамки, а также предлагаются рекомендации по их улучшению для повышения эффективности взаимодействия ННО с государственными структурами. Рассматриваются примеры успешных практик и инициатив, способствующих прозрачности и подотчетности государственных органов.*

***Ключевые слова:** ННО, общественный контроль, Узбекистан, реформы, оптимизация, правовые аспекты, организационные аспекты, гражданское общество, государственные органы, взаимодействие.*

OPTIMIZATION OF NGO ACTIVITIES IN PUBLIC OVERSIGHT DURING REFORMS IN UZBEKISTAN: LEGAL AND ORGANIZATIONAL ASPECTS

Polina Pak

National University of Uzbekistan

***Abstract:** The study focuses on optimizing the activities of non-governmental organizations (NGOs) in public oversight during the reform process in Uzbekistan. It analyzes existing legal and organizational frameworks and offers recommendations for their improvement to enhance the effectiveness of NGO interaction with government structures. Examples of successful practices and initiatives promoting transparency and accountability of government bodies are examined.*

***Keywords:** NGOs, public oversight, Uzbekistan, reforms, optimization, legal aspects, organizational aspects, civil society, government bodies, interaction.*

Нынешний уровень гражданского самосознания, детерминируемый такими факторами, как отношение населения к национальным и демократическим ценностям, политическая активность граждан, оказывает существенное влияние на взаимодействие государства и гражданского общества. Продолжение курса на целенаправленное формирование самосознания и мышления людей в направлении повышения уровня их гражданского самосознания способствует широкой поддержке поступательного продвижения Узбекистана по пути углубления реформирования и модернизации страны.

В условиях укрепления диалога между государством и обществом особенно актуальным становится исследование общественного контроля и гражданского самосознания, их формирования и развития. Как известно большинство представителей неправительственных организаций считают, что ННО имеют право на осуществление общественного контроля.

Согласно социологическим исследованиям проведенным Центром развития гражданского общества, субъектами общественного контроля в основном выступают институты гражданского общества, такие как общественные объединения и негосударственные некоммерческие организации. Также значительную роль играют средства массовой информации и граждане, проявляющие активную гражданскую позицию. К примеру, при ответе на вопрос: «Кто, по Вашему мнению, осуществляет общественный контроль?» респонденты ответили следующим образом:

- Институты гражданского общества (61,4%)
– tobelik obyektiga nisbatan haddan ortiq motivatsiya ya'ni internet tarmog'ida butunlay o'zini ko'rish va hokazo. Demak, internet har qanday shaxsni shudday o'zgartiradiki, inson unga erishish uchun barcha to'siqlarni yengishga tayyor bo'ladi.

Xulosa. Axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish esa insonning ong darajasi bilan bog'liq. Ong darajasi bilim darajasiga, bilim darajasi esa, o'z navbatida, borliqdagi voqea-hodisalar mazmun-mohiyati bilan mutanosib bo'lishi darkor. Shuning uchun, birinchi navbatda, axborot olayotgan kishi uni mutlaqlashtirmasdan, o'z shuuri darajasida tahlil qilib, so'ng qabul qilishi lozim.

Shunday qilib, kiberjinoyatlar va kiberhuquqbuzarliklarni tergov qilish va ularni aniqlash, bartaraf yetish hamda oldini olish bo'yicha zarur qarorlar qabul qilish, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok yetish, kiberterrorizm,



kiberekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, davlat organlari manfaatlariga hamda kiberxavfsizligiga tahdid soluvchi kiberhatarlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish kiberjinoyatlarning sodir yetilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf yetish kabi muhim vazifalarni bajarishlari lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Рубцова, О. В. (2019). Цифровые технологии как новое средство опосредования (Часть первая). Культурно-историческая психология, 15(3), С. 117–124.
2. Шнейдерман, Б. (1992). Человеческие ценности и будущее технологии («Декларация ответственности»). Психологический журнал, 13(3), С. 66–75.
3. Norman, K. L. (2017). Cyberpsychology: An Introduction to Human-Computer Interaction. UK: Cambridge University Press. P. 68-75.
4. Suler, J. (2016). Psychology of the Digital Age: Humans Become Electric. Cambridge University Press. Whitty, M. T., Young, G. (Eds) (2016). Cyberpsychology: The Study of Individuals, Society and Digital Technologies. BPS Blackwell. P. 37-49.
5. Солдатова, Г. У., Рассказова, Е. И., Нестик, Т. А. (2017). Цифровое поколение России: компетентность и безопасность. М.: Смысл. С.70
6. Руководство по аддиктологии: учебник /А.В Борцов, А.Ю. Егоров, Т.В Клименко [и др.] / под ред. проф. В. Д. Менделевича. - СПб.: Речь, 2007. – С.123.
7. Манеров, В. Х., Королева, Н. Н., Богдановская, И. М., Проект, Ю. Л. (2006). Миробразование и личностные феномены Интернет-коммуникации. СПб.: Изд-во РГПУ. С.179.



РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО ПИСЬМА УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ.

Ахмаджонова Мукаддас Маруфовна

преподаватель начальных классов средней школы №3
города Чуст Наманганской области (Узбекистан).

Аннотация. В данной статье рассматриваются методы и подходы к развитию творческого письма у учеников начальной школы. Автор акцентирует внимание на значении творческого письма как важного компонента образовательного процесса, способствующего развитию критического мышления, воображения и языковой компетенции младших школьников. В статье приводятся конкретные примеры упражнений и заданий, направленных на стимулирование воображения детей и развитие их навыков письменной речи. Также обсуждаются педагогические стратегии, которые могут быть использованы для создания благоприятной атмосферы для творчества и самовыражения. В заключении подчеркивается необходимость систематического подхода к развитию творческого письма и предлагаются рекомендации для педагогов по интеграции этих методов в учебный процесс.

Ключевые слова: творческое мышление, письмо, навыки, язык, процесс.

Развитие творческого письма является одной из ключевых задач начального образования. Важность этого аспекта заключается не только в улучшении навыков письменной речи, но и в стимулировании воображения, критического мышления и самовыражения учеников.

Как может выглядеть, ощущаться и звучать творческое письмо в классе начальной школы? Как творческое письмо может стать радостным и содержательным опытом обучения и как мы, преподаватели, можем облегчить творческий процесс и позволить молодым писателям использовать свое воображение во время письма?

Графические органайзеры, интеллект-карты и раскадровки, безусловно, являются отличными инструментами для построения и планирования повествования, но они не обязательно поддерживают творческий процесс, необходимый для написания рассказов. На самом деле они могут даже ограничивать творческие способности учащихся, «упаковывая» идеи в заранее определенные шаблоны. В этом году в моем классе игровой и практический подход оказался огромным успехом.

Творческое письмо представляет собой процесс выражения мыслей и идей в письменной форме, используя воображение и оригинальность. Этот вид деятельности позволяет детям:

- Развивать языковую компетенцию;
- Расширять словарный запас;
- Улучшать грамматические навыки;
- Повышать уровень уверенности в себе;
- Стимулировать критическое мышление и аналитические способности.

Для эффективного развития творческого письма у учеников начальной школы важно применять разнообразные методы и подходы, которые будут учитывать возрастные особенности детей и их индивидуальные потребности.

Мы можем использовать следующие упражнения на стимулирование воображения.

Упражнения, направленные на стимулирование воображения, играют ключевую роль в развитии творческого письма. Примеры таких упражнений:

- Рисование и описание: Дети рисуют картинку, а затем пишут рассказ по своему рисунку.
- Сказки на новый лад: Переписывание известных сказок с изменением сюжета или персонажей.
- Воображаемые миры: Создание и описание вымышленных миров и персонажей.

Использование литературных примеров. Чтение и анализ литературных произведений помогает детям понять структуру рассказа, развитие персонажей и использование литературных приемов. Важно выбирать книги, которые будут интересны и понятны детям данного возраста.

Педагогические стратегии. Для создания благоприятной атмосферы, способствующей творческому письму, учителю необходимо:

- Поощрять детей за любые проявления творчества, независимо от их уровня;
- Обеспечивать позитивную и поддерживающую обратную связь;
- Предоставлять свободу выбора тем для написания;



- Создавать коллективные проекты, где дети могут обмениваться идеями и работать вместе.

Примеры заданий для развития творческого письма:

1. Сочинение на заданную тему: Учитель предлагает тему, а дети пишут небольшое сочинение, выражая свои мысли и фантазии.

2. Письмо герою книги: Дети пишут письмо любимому персонажу из прочитанной книги, задавая вопросы или предлагая свои приключения.

3. История с продолжением: Каждый ученик пишет часть истории, а затем передает ее следующему, чтобы тот продолжил.

В рамках этого конкретного раздела мои ученики изучали литературу и рассказывание историй. После того, как они несколько раз прочитали вслух, изучили элементы истории и изучили гору истории (начало, развитие событий, конфликт, разрешение и финал) в команде, пришло время написать свои собственные истории.

Они начали с создания главного героя и определились с его внешностью, личностью, симпатиями и антипатиями. У них также был выбор сыграть главную роль в истории. В обоих случаях, пока еще проводился мозговой штурм, пришло время действовать: они нарисовали и украсили своих персонажей маркерами и карандашами, вырезали их и использовали палочку от мороженого, чтобы сделать марионетку.

Они стали еще более заинтересованы в продолжении, когда увидели, как их персонажи оживают. Мои ученики спонтанно начали взаимодействовать друг с другом и своими марионетками, создавая истории и проявляя воображение, они сразу перешли в режим рассказывания историй. Это создало для меня прекрасную возможность сделать шаг назад и понаблюдать за инициативой, креативностью, социальными и коммуникативными навыками моих учеников, не говоря уже об их чувстве выполненного долга и радости.

Развитие творческого письма у учеников начальной школы является важной задачей, которая требует систематического подхода и использования разнообразных методов и подходов. Упражнения на стимулирование воображения, использование литературных примеров и педагогические стратегии помогут создать благоприятную атмосферу для развития творческих способностей детей. Важно, чтобы учителя поддерживали и поощряли любые проявления творчества, способствуя развитию уверенности в себе и любви к письменному самовыражению.

Ниже приведу рекомендации для педагогов для улучшения навыков творческого письма у учеников:

1. Интегрировать задания на творческое письмо в повседневный учебный процесс.

2. Использовать разнообразные методы и подходы, адаптированные к возрасту и интересам детей.

3. Обеспечивать позитивную и конструктивную обратную связь.

4. Создавать условия для коллективного творчества и обмена идеями.

Развитие творческого письма поможет младшим школьникам не только улучшить свои навыки письма, но и раскрыть свой творческий потенциал, что станет залогом их успешного будущего обучения и личностного роста.

Использованная литература:

1. Вайткене, Л. П., Куцевич, Е. А. (2018). Психолого-педагогические основы творческого развития младших школьников. «Педагогика и психология детства», 3(4), 25-33.

2. Короткова, Е. М. (2019). Технологии развития творческих способностей детей младшего школьного возраста. «Начальная школа», 5, 45-49.

3. Морозова, О. А. (2020). Развитие письменной речи у младших школьников. «Психология и педагогика: методы и проблемы», 12(2), 78-85.

4. Никифорова, Т. С. (2017). Творческое письмо как средство развития личности младшего школьника. «Вестник современной науки», 10(1), 89-94.



РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ УЗБЕКСКОГО
ЯЗЫКА: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ.

Бузрукхонова Фароғатхон Мунаваровна

преподаватель узбекского языка средней школы №3 города
Чуст Наманганской области (Узбекистан)

Аннотация. Критическое мышление, как высоко ценимый общий навык, лежит в основе образования во всем мире. Хотя исследования показывают тесную связь между языком и мышлением, интеграция критического мышления в овладение языком недостаточно изучена. Таким образом, данное исследование исследует жизнеспособность исследовательских бесед и веб-квестов для развития критического мышления у изучающих узбекский как второй язык. Основываясь на количественных и качественных результатах диалога в классе, это исследование показывает, что участвующие учащиеся продемонстрировали критическое мышление посредством использования явных рассуждений и исследовательских бесед в групповых дискуссиях.

Ключевые слова: владение языком, критическое мышление, коммуникативность, компетенция.

Развитие критических навыков учащихся является одной из основных задач учителей узбекского языка как национального языка. Профессиональные преподаватели и начинающие стараются найти способы мотивировать своих учеников. Развитие коммуникативной компетентности требует от учащихся разработки стратегий обучения и сосредоточения внимания на языковых функциях и контексте. Выполняя каждое задание курса, учащиеся лучше понимают и осознают, что общение – дело непростое. Развитие точности и беглости на уроках иностранного языка также способствует развитию критического мышления учащихся. Однако что такое критическое мышление? Каково мнение об этом учащихся? Какие коммуникативные мероприятия могут использовать учителя иностранного языка на уроках для развития критического мышления учащихся?

В результате наблюдений было обнаружено, что развитие навыков критического мышления помогает учащимся улучшить свое общение, расширить словарный запас и научиться использовать язык для различных целей в различных контекстах. Преподаватели языков могут помочь учащимся развить навыки критического мышления.

Существуют различные факторы, влияющие на способность учащихся общаться на уроках узбекского языка. Здесь мы можем упомянуть мотивацию, среду в классе и другие факторы, такие как контекст преподавания и обучения. Хорошие учителя знают, как бросить вызов ученикам. Хороший преподаватель языка применяет методы и методологию в соответствии со стилем обучения ученика. Таким образом, у учеников появляется мотивация учиться больше и чаще участвовать в групповой или командной работе. Одним из факторов, влияющих на общение учащегося, является его способность мыслить и действовать критически.

Благодаря критическому мышлению учащиеся очень хорошо развивают способность общаться на узбекском языке. Таким образом, развитие критического мышления стимулирует автономное обучение. Изучение языка – непростой процесс. Использование средств и возможностей языковой практики в классе также является одной из задач учителя и ученика.

Существуют разные определения навыков критического мышления, но суть их одна и та же: способность логически мыслить исследовательски. Критическое мышление относится к способности людей брать на себя ответственность за свое мышление и разрабатывать соответствующие критерии и стандарты для анализа собственного мышления. Задания и задания, используемые на уроке, влияют на восприятие языка учащимися. Роль учителя на уроке языка очень важна.

Роль учителей – научить учащихся не только языковым навыкам, но и навыкам критического мышления. Читая отрывок, учащиеся используют свои критические навыки для анализа и понимания отрывка. Иногда они используют эти навыки неосознанно. Эти навыки чрезвычайно полезны для учащихся в ходе написания задания. В последнее время воспитание критического мышления учащихся считается одной из задач учителя. Навыки критического мышления заставляют учащихся размышлять и проявлять творческий подход. Благодаря критическому мышлению ученики становятся автономными и уверенными в себе. Навыкам критического мышления можно обучать на всех уровнях обучения: от учащихся средних и старших классов



до учеников университетов.

Контексты преподавания и обучения. В настоящее время применяются различные методы обучения, чтобы научить учеников критически мыслить. Эта стратегия применяется не только в узбекском языке, но и в других предметах. На занятиях учащийся пытается связать все знания и применить на практике полученные знания. Учитель языка, основанный на языковой программе, знакомит учащихся с коммуникативной деятельностью, моделированием и другими ролевыми играми и действиями по решению проблем.

Поскольку основная цель изучения языка – его использование в общении и для общения, очень важно использовать эффективную методику обучения.

В коммуникативном классе все участники сотрудничают. Эффективное обучение зависит от эффективного преподавания. Преподавание включает в себя страсть, способности, навыки, активное обучение и взаимодействие. Профессиональный преподаватель знает потребности учащихся. Преподавание узбекского языка – это не просто: объяснить урок, объяснить словарный запас, прочитать вслух, дать домашнее задание и все готово. Эффективный преподаватель должен давать инструкции, как выучить эту лексику, как написать эссе, как написать сочинение и так далее. Хорошо подготовленный учитель использует различные педагогические навыки на занятиях, ориентированных на учащихся, где языковой контекст должен быть значимым. Учитель помогает и контролирует учеников во время работы над заданиями, на которых говорят и понимают язык.

Мысля критически, учащиеся стараются соотнести известную информацию с неизвестной, нарисовать схемы, соотнести мысли со смыслами. Задача учителя показать им, как это сделать, решить и сделать выводы. Благодаря критическому мышлению учащиеся развивают творческие способности и расширяют свой словарный запас, языковые и культурные знания. Возникает вопрос: Почему? Когда? и как? Учить.

Шаги по развитию навыков критического мышления начинаются с создания условий и подготовки их для закрепления этих навыков. В коммуникативном классе даже занятия коммуникативны. В идеальной программе академического языка цели учебной программы должны выходить за рамки лингвистических факторов и способствовать развитию критического мышления учащихся.

Стимулирующие мысли помогают учащимся осознать потенциал словарного запаса, который они собираются использовать. В каждом языковом контексте учащиеся активируют известный словарный запас. Навыки разговорной речи, чтения, аудирования и письма помогают учащимся улучшить свое общение.

Благодаря критическому мышлению учащиеся учатся самостоятельно и принимают собственные решения в различных задачах.

Однако существуют различные факторы, которые мотивируют и влияют на критическое мышление изучающих узбекский язык. Способность мыслить является основным требованием для успеха учащихся в исследовательском обучении.

Профессиональный учитель использует мероприятия, чтобы вовлечь учащихся в совместное обучение. Для изучающего узбекский язык очень важно сначала улучшить свои критические навыки, а затем использовать эти навыки для улучшения своих языковых навыков. Благодаря упомянутым выше видам деятельности учащиеся взаимодействуют, сотрудничают и используют язык. Развитие критически важных навыков может происходить на разных языковых уровнях в зависимости от возраста учащихся в любое время.

Хорошо подготовленные интерактивные занятия помогают ученикам понять процесс обучения и повысить коммуникативную компетентность. Учащиеся узнают о языковом потенциале и своей способности улучшить знание языка.

Использованная литература:

1. Заир-Бек С.И. Развитие критического мышления на уроке: Пособие для общеобразователя. учреждения / С.И. Заир-Бек, И.В. Муштавинская.
2. Муштавинская И.В. Технология критического мышления на уроке и в системе подготовки учителя. - СПб.: КАРО, 2009.
3. Е. В. Зарукина, Н. А. Логинова, М. М. Новик. Активные методы обучения: рекомендации по разработке и применению.



Ibragimova Zarnigor Orifjon qizi,
Turon universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Tel:+998977486377
ibragimovazarnigor@94.com

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri hamda uni oldini olish yo'llari haqidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Bugungi kundagi o'quvchi yoshlar dunyoqarashi o'zgarishlar, ruhiy buzulishlar va axloqiy degaradatsiya oid ilmiy-nazariy mushohadalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Internet, ommaviy ong, manipulyatsiya, psixologik yondashuv, ijtimoiy ong, dunyoqarash.

Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan foydalanmaslikning yoki ularga murojaat etmaslikning hech bir iloji yo'q. Chunki, inson dunyoqarashining shakllanishida, ma'naviy olamining yanada kengayishida, ayniqsa kompyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini bajarmoqda. Bu - bir tomondan quvonarli holat. Bugungi kunda, biz yoshlar, mana shunday katta imkoniyatlardan xohlagancha foydalanib, o'qish yoki ish davomida vaqtimizdan ancha unumli foydalanmoqdamiz. Hozirgi kun nuqtai nazar bilan qaraydigan bo'lsak, allaqachon global tarmoqqa aylanib ulgurgan internet o'zining tezkorligi chegara bilmasligi bilan ommaviy axborot vositalari orasida eng muhim sohaga aylanib ulgurdi. Shaxsning dunyoqarashi, turmush tarzi, axloqiy va hayotiy tamoyillari jamiyat taraqqiyotining qulay imkoniyatlari bilan belgilanadi. Jamiyat ehtiyoj va imkoniyatlari oxir-oqibatda kishilarning moddiy va ma'naviy taraqqiyot yo'nalishlarini ko'rsatib beradi. Ammo bu bir tomonlama ta'sir bo'lmay, odamlarning dunyoqarashida jamiyat ehtiyoj va imkoniyatlari o'ziga xos, o'z moddiy va ma'naviy holatlaridan kelib chiqib, aks etadi va aks ta'sir qilishi ham mumkin. Milliy hayotning o'ziga xosligi, milliy qadriyatlarini ma'lum darajada ta'sirini saqlab qoladi. Jamiyat yaratgan taraqqiyot imkoniyatlari milliy madaniyatlarda turlicha ifodalanishi tabiiy. Biroq bu dialektik birlikda jamiyat taraqqiyot imkoniyatlari birlamchi bo'lib, magistrat yo'lini belgilab beradi. Har qanday narsada, voqea, jarayonda me'yor buzilsa, teskari oqibatlarga olib keladi. Bunday hollarda internet inson ma'naviy olamini boyitish o'rniga uni biryoqlama, xayolotga, virtuallikka tobe qilib qo'yadi. Inson psixikasini buzuvchi g'oyalar, salbiy mazmundagi axborot zarari shundoqqina ko'rinib turibdi. Ular inson ma'naviyatini, shaxsini bevosita yemiradi.

Psixologlarning fikricha, virtual olamga bog'lanib qolish o'z ichiga uch bosqichni oladi.

Birinchi bosqichda o'smir kompyuter imkoniyatlarini o'rganadi, o'zini virtual voqelikka tayyorlaydi.

Ikkinchi bosqichda o'smir bor imkoniyatlarini ishga solishni o'rganadi va ko'p vaqtini kompyuter oldida o'tkaza boshlaydi. Internet uning uchun yagona axborot va muloqot manbaiga aylanadi. O'smir virtual voqelikni haqiqiy hayot deb qabul qiladi. Tobelikning uchinchi bosqichida esa u butun vaqtini kompyuter oldida o'tkazadi, uni bu olamdan olib chiqishga bo'lgan har qanday urinishga nisbatan g'azab bilan munosabatda bo'ladi.

Mutaxassislarining fikrlarini umumlashsaksak o'smirlarning virtual olamga tobelligi quyidagi guruhlarga bo'linadi:

O'yinga tobelik - turli qiziqarli o'yinlarga mahliyo bo'lgan o'smir borliqini unutadi. U faol hayotdan uzoqlashadi, hattoki ovqatlanish, o'ziga qarash, dam olish, tabiiy ehtiyojlari uchun sarflash lozim bo'lgan vaqtini ham o'yinga bag'ishlaydi;

Virtual tanishuvlarga ruju qo'yish - faqat Internet tarmog'idan do'st qidirish bilan band bo'ladi, real hayotdagi do'stona munosabatlarni unutadi;

Web-serfing - tunu-kun Internetda o'tirish. U aniq maqsadsiz u saytdan bu saytga o'tadi. Asosiysi, Internet bo'lsa bo'ldi. Real maqsadlardan judo qilish illyuziyalar, xayolot olamida yashab, real hayotdan uzilib qolish, hayotda biror narsaga erishish, o'z imkoniyatlarini, salohiyatini yuzaga chiqarishdan oxur-oqibat mahrum bo'lish virtual gipervoqelikning insonga ayniqsa yosh avlodga yetkaziladigan eng katta zarardir.

Virtual olamga tobe bo'lganlarda quyidagilar namoyon bo'ladi:

Uning kayfiyati Internetga ulanish imkoniyatiga bevosita bog'liq. Internet bo'lmasa jahli chiqadi va asabi buziladi;



Hamma bilan faqatgina kompyuterga aloqador mavzuda suhbatlashadi va odamlarga bu qiziq ekanligiga ishonadi;

Kompyuter qarshisida o'tirganida har qanday qiziq taklif bilan ham uni joyidan qo'zg'atish mushkul bo'ladi;

Ish yoki o'qish bilan band bo'lgan chog'ida ham pochtasini, ijtimoiy tarmoqdagi sahifasini ko'rishga vaqt topadi (ba'zi o'smirlarga ish buyursangiz, ish qilayotgan vaqtida ham bir qo'lida smartfoni bo'ladi va asosiy e'tibori ishga emas, smartfoniga qaratiladi);

U vaqtni his qilmaydi, soatlab o'yin o'ynashi yoki Internetda sayr qilishi mumkin;

Xotirasi yomonlashadi. Ko'p narsani kompyuteri yordamida eslaydigan, ammo miyasida hech narsa turmaydigan bo'lib qoladi;

Moddiy imkoniyati yo'q bo'lsa ham Internetsiz tura olmaydi. U yeyish-ichish, kiyinishdan tejab bo'lsa ham birinchi navbatda Internet uchun pul sarflaydi;

Kompyuter qarshisida rohatlanadi, boshqa vaqt esa atrofdagilarga befarq bo'ladi yoki o'zini juda asabiy tutadi. Aslida kompyuterga, axborotga tobelik, giyohvandlik va alkogolizmga o'xshash ruhiy kasaldir. G'arb mamlakatlarida alloqachon kompyuterga tobelik kasallik sifatida tan olingan va davolanmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarga tobelik. Prezidentimiz bu boradda "Milliy ma'naviyatimizga mutloqa begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, "chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda".

A.Tulipov to'g'ri ta'kidlagandik «Ijtimoiy tarmoqlarga tobelik» atamasi yaqinda paydo bo'ldi. Oldinlari umumiy qilib, «Internetga tobelik» deb atalardi. Ammo ijtimoiy tarmoqlar keskin rivojlanib, ta'sir kuchi juda oshdi. Bu borada Internetdagi boshqa resurslarni orqada qoldirib ketdi. "Bugungi kunda paydo bo'lganiga uncha ko'p bo'lmasada, ammo allaqachon "ари уяси" kabi eng gavjum elektron manzillarga aylangan "Ijtimoiy tarmoqlar" yovuz kuchlarning virtual quroliga aylandi. Zero, terrorchilik kayfiyatidagi shaxslarning ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borayotgan targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. Jumladan, "Odnoklassniki", "Facebook", "Instagram", "Twitter", TikTop hamda "VKontakte" ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Bunday saytlar kundan kunga ko'payib foydalanuvchilar soni oshmoqda. Shuning uchun ham yoshlarda xabar va ma'lumotlarni tahlil eta olish malakasini hosil qilish zarur". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarorida, "ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyokarashni shakllantirish" kerakligi belgilangan.

Ijtimoiy tarmoqlar nega bizning yoshlarimiz uchun jozibali? Yagona axborot maydonida ijtimoiy so'zlashuv aloqasining salbiy va ijobiy jihatlarini tahlil qilsak. Bugungi axborot maydonida ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlarini sanab o'tsak.

1. Bugungi axborot maydonida ma'lumotlarni qidirish tezligi. Ijtimoiy tarmoqlarda inson o'ziga kerakli videoni, musiqani, fikrdoshlarni osongina topish mumkin. Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tishda (ijtimoiy tarmoqdan) o'zining familiyasi va ismini, shuningdek boshqa o'ziga tegishli ma'lumotlarini - yoshi, ta'lim muassasasi, aloqa raqamlarini (telefon, electron pochta va boshqalar) taqdim etadi. Ma'lum bir sekuntlar ichida har qanday insonni o'zi haqida ishonchli va asosli ma'lumotlarni taqdim etgan holda topishga imkon beradi. Bu esa zavqli va juda ham qulay - chunki ilgari bolalik do'stlari, tanishlar yoki sinfdoshlarini topish uchun ancha vaqt talab qilinar edi.

2. Bugungi axborot maydonida ma'lumotlarni ma'lumot va aloqa almashish oson va qulayligi. Albatta, har birimizni o'z mobil aloqa telefonimiz bor, biz u orqali (MMS va SMS xabarlarini orqali) ma'lumot olishimiz, berishimiz va almashishimiz mumkin. Ammo bu jarayon vaqt va ko'p sarmoyani (pul mablag'ini) talab qiladi. Ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoq orqali yuborish ancha qulaydir. "Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqdagi akkauntga ega bo'lgan kishi, yon-atrofdagi sodir bo'layotgan barcha voqealardan xabardor, u o'zini qiziqtirgan har qanday insonlarning sahifasiga kirib, fotosuratlarini ko'rish, tanishishi, yangiliklarga sharh berishi yoki shunchaki suhbatlashishi mumkin. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarning bugungi ustunligi.

3. O'zini qiziqishlari ko'lamini yaratish. Inson nimani juda yaxshi ko'rmasin va xohlamasin, u ijtimoiy tarmoqdan shubhasiz o'z sirdoshlari va fikrdoshlarini izlab topadi. Ijtimoiy tarmoqda buning



uchun qiziqarli guruhlar va jamoalar mavjud bo'lib, unda foydalanuvchi ma'lum bir xaridlarni amalga oshirishi, reklamalardan foydalanishi, biron bir narsani olishi yoki sotishi va almashtirishi hamda hatto ish topishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy jihatlarini ko'rib chiqsak:

Ko'p vaqtini samarasiz sarflash. Ijtimoiy tarmoqlar kimdir uchun o'z vaqtini "o'ldirish" (be foyda) uchun ajoyib imkoniyatdir, ammo ba'zilar uchun bu shunchaki behuda vaqt sarflashdir. Axir, bu vaqt ko'proq foyda bilan sarflash mumkinki: mazali kechki ovqat tayyorlash, do'stlar bilan uchrashish yoki til o'rganish, o'z-o'zini tarbiyalash va ilm bilan shug'ullanish.

Haqiqiy dunyodan ajralib qolish. Ijtimoiy tarmoqlarda biz o'zimizni hayotdan farqli ravishda boshqacha tutamiz. Internet-aloqa sohasidagi zamonaviy izlanishlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, ijtimoiy tarmoqlarga tashrif buyuruvchilarning 70 foizi o'z hayotlarini bezab turibdi. Bundan tashqari, haqiqatni o'zgartirish va ijtimoiy tarmoqda boy va muvaffaqiyatli bo'lib namoyon bo'lish qobiliyati ham ko'pchilikni o'ziga jalb qiladi. Natijada, yaratilgan virtual tasvirga shunchalik odatlanib qolish xavfi tug'iladi, shunday qilib aytganda, o'z vaqtida erga qaytish har doim ham mumkin emas.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar - bu firibgarlar va yovuz niyatli kishilar niyatlarini amalga oshirish uchun yaxshi qulay faoliyat sohasi. Ko'pchilik yoshlar o'zlari haqidagi eng zo'r ma'lumotlarni batafsil yoritishga, haddan tashqari ko'p video va fotosuratlarini joylashtirish, bir kun kelib o'zlariga qarshi ishlatilishi mumkin deb o'ylamaydilar.

Salomatlikka zarar etkazish. Ko'p soat kompyuter va telefonidan foydalanish ko'rishning pasayishiga va jismoniy harakatsizlikka olib kelishi hamda umitqa pog'onalarini qiyshayishiga olib kelishi mumkin.

Mehnat bo'lgan motivatsiyasini sunishi. Ijtimoiy tarmoqlarga tobey bo'lib qolgan inson undan boshqasini uylamaydi va kamroq harakat qiladi.

-Ijtimoiy tarmoqlar - yomon niyatli kishilar va firibgarlar uchun asosiy faoliyat sohasidir. Deyarli ko'pchilik o'zlarini mashhur qiladigan eng to'liq ma'lumotlarni, haddan tashqari ko'p sonli video va sur'atlarni joylashtirishadi, lekin bir kun kelib, shu ma'lumotlar bizga qarshi qarshi qo'llanilishi mumkin deb o'ylamaydilar.

-Sog'likka zarar etkazish. Ijtimoiy hayotda doimiy ishtirok etish. tarmoq sog'liqqa bir oz zarar etkazishi mumkin. Ko'p soat kompyuterda o'tirish ko'rishning pasayishiga va jismoniy harakatsizlikka olib kelishi mumkin.

-Mehnat motivatsiyasini yo'qotish. Ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolgan odam kam harakat qiladi. Bugungi kunda ko'plab korxonalarda xodimlarning ijtimoiy hayotga kirishi. tarmoq mavjud emas, chunki bunday aloqa ishdan katta chalg'itadi.

Avvalo, insonda virtual va real hayot o'rtasidagi chegara yo'qola borishi bilan uning uchun internetdagi tanishlari hayotdagi yaqinlaridan afzalroq bo'lib qoladi. Ijtimoiy tarmoqda o'tirganida internet uzilib qolsa, o'zini qayerga qo'yishni bilmay qoladi. Ijtimoiy tarmoqdagi qandaydir ilonga aylangan ayol haqida hamma narsani biladi, lekin muhim ijtimoiy siyosiy yangiliklardan xabardor emas. Eng yomoni, bu o'zgarishlar odamning o'ziga sezilmaydi. Yaqinlari bilan o'rtasida jarlik paydo bo'layotganini payqasa ham, bunda atrofdagilarni ayblaydi. Uning nazarida meni tushunishmaydi, deydi. Aslida esa, o'zi hayotdan chetlashib borayotgan bo'ladi. Odatda yolg'iz, bekorchi va nazoratsiz qolgan yosh insonlar ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketadilar. Lekin bu yolg'izlik ko'p hollarda yuzaki bo'ladi. O'zini past baholaydigan yosh ayol, tengdoshlari bilan chiqisha olmayotgan o'smir, suhbatlashishni jondan ortiq ko'radigan odamlar - mana shular tarmoqlarni gullatayotgan toifalar. Bora-bora, ular real hayotda ham gaplashish mumkinligini unutib qo'yadilar. Ular uchun virtual suhbatdan azizroq narsa qolmaydi. Hatto yonlariga do'stlari kelib qolsa, tezroq uni jo'natib, yana saytga qaytishga intiladilar. Shu sababli Internetning uzilib qolishi - ular uchun katta fojea! Ular uchun Internetdan tashqaridagi hayot qiziqarli bo'lmay qoladi. Chunki bu yerda «layk» qo'yib bo'lmaydi, yoqmagan odamni «ignor» qila olmasan.

Internet deyarli nazorat qilib bo'lmaydigan tarmoq. Undagi mavjud axborotlardan foydalanishni to'la nazorat qilish ham mushkul. O'smirning Internetdan foydalanishini cheklash bilan muammoni hal qilib bo'lmaydi. Chunki u internetga kirish uchun baribir imkon topa oladi.

Bugungi kunda internetdan foydalanuvchilarning ko'pchiligini yoshlar tashkil etgani holda, uning katta qismi o'quvchi yoshlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu bois mutaxassislar, shifokorlar, pedagoglar, olimlar tarafidan internetdan foydalanuvchi o'quvchi-yoshlarga maslahat, ko'rsatmalar berib borilmasa yoki butunlay nazorat qilinmasa mazkur yangi texnologiyalar bolalar va yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sirga egaligi ham ta'kidlan moqda. Chunki bugungi globallashuv jarayoni



yoshlarning ma'naviy dunyosini egallash borasida turli axborot maydonlaridan faol foydalanish «poyga»si jadallashib bormoqda. Kompyuter o'yinlari yoshlarning vaqtini o'g'irlamoqda. Internet – klublarda yoshlar ayni o'qib, ilm hosil qiladigan paytlarida vaqtlarini bekorchi o'yinlarga, ijtimoiy tarmoqlarda mutlaqo notanish shaxslar bilan qimmatli vaqtini tanishishga sarflayotgani tashvishli holat. Chunki internet va kompyuter o'yinlari asriga aylangan o'smirlar hayotdan, ilm olish, kasb o'rganishdan va ma'naviy qadriyatlardan tamoman uzilib, butunlay manqurtlashib boradi. Hozir kompyuter o'yinlari orqali o'smir yoshlarga salbiy ta'sir qilib, ular ongiga o'z buzg'unchi g'oyalarini singdirish yoki ularni to'g'ri yo'ldan ozdirishga urinadigan yashirin kuchlar juda ko'p. Kompyuter o'yinlariga mukkasidan ketgan o'smirlar o'zlari bilmagan holda yashirin kuchlarning qo'g'irchog'iga aylanadi. Kompyuterga mu'te bo'lgan yoshlarning fikri-xayoli, butun vaqti, hatto uyqusi ham bemani o'yinlar bilan band bo'ladi. Oxir-oqibat bunday manqurt yoshlar tengdoshlari, yaqinlari va hatto ota-onasiga ham qo'l ko'tarishgacha agar mubolag'a bo'lmasa qurol o'qtalishgacha borib yetadi. Bu esa jamiyatda ilimsizlik, johillikning tomir yoyishiga alal oqibat yurt parokanda bo'lishiga olib keladi. Foydalanuvchi kerakli ma'lumotlarni internet orqali yaxshilab o'qib o'ziga ma'lumot sifatida olib qolishi ham mumkin bo'ladi. Yana bir misol avvallari bir inson o'zining yaqiniga hat yozmoqchi bo'lsa, u xat yozish uchun qog'oz qalam olishi, unga gaplarni yozishi, uni esa po'chtaga olib borishi kerak bo'lardi. Xat tashuvchi uni olib kerakli joyga elitib bergunicha oradan bir necha kun vaqt o'tardi. Hozirda esa bunday ishlar oddiygina bir hol bo'lib qoldi. Odamlar tobora ko'proq turli xil media kanallaridan foydalanishmoqda va ularga ko'proq vaqt sarflashmoqda. Bundan tashqari, mutaxassislar va ota-onalar Internetning zarari bolalarga ham sezilishini aytishmoqda. Aynan qanday? Internetning zarariga ishora qiluvchi ma'lum sabablar mavjud. Ayniqsa, bolalar uchun. Internetning inson ruhiyatiga birinchi salbiy ta'siri barqaror qaramlikdir. Endi siz qanday qilib odam kompyuterda soatlab o'tirganini va u o'tayotgan hayotni sezmayotganini ko'rishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev insonparvarlik, ezigulik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir T.: “tasvir” nashriyoti-2021. 8 bet.
2. Beruniy Alimov “Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli” maqolasidan//<https://beruniyalimov.uz/archives/705/>.
3. P.Taranov. Yuqori ong ensiklopediyasi, 1999 y.
4. A.Tulepov ISHID fitnasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2015. 90-b.
5. Qo'ng'irov I.H., Kungirova Sh.I.“Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari T: 2020 yil, B-191.
6. G'oziyev.E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2002.
7. V.Karimova, F.Akromova, N.Lutfullayeva. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2011, 154 b.



TA'LIM JARAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YANGILIKLARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Jobborov Bekjon Bayjonovich

XVPYMO' MM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi"

kafedra o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 857-67-75

jobborov.bekjon@gmail.com

Babadjanov Azamat Kadamovich

XVPYMO' MM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi"

kafedra katta o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 511-85-75

azamatmoi@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimida o'quv samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari, innovatsion yangiliklardan samarali foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, faol harakatga undash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogika, innovatsiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar.

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarix shundan dalolat beradiki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan, algoritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi.

Ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo'lanilishi o'qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholavchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat.

Bugungi kunda maktab va oliy ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalarini rivojida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. **Innovatsiya** (in-"lik", novus- "yangi") yangilik kiritish, yangi degan ma'noni anglatadi.

Ta'lim sohasi - mamlakatimizda birinchilardan bo'lib faol innovatsion harakatni boshladi. Ma'lum bosqichda XX asr oxirlarida bunday harakatlar yo'lga qo'yilgan edi. Masalan, A.G. Rivin va V.K. Dyachenko tomonidan o'qitishning jamoaviy o'qitish, D.B. Elkonin, V.V. Davidov, L.V. Zankovlar tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim to'g'risidagi qarashlar o'z vaqtida ma'lum ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga boshqa innovatsion ta'lim texnologiyalari: dialektik o'qitish usullari, o'qitishning individual yo'nalishi, everestik o'qitish, dialog madaniyati, o'z-o'zini refleksiya va boshqalarni keltirish mumkin.

Hech kimga sir emaski, ta'lim berishda ilg'or pedagogik texnologiyalarining zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash umumiy o'rta ta'limning asosiy shartlaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, tarqatma materiallar, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Ta'lim jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. O'quvchilarni fikr doirasini, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhim. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyati ko'p



qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Bugungi yangilanish, ma'naviy yuksalish davrida har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bunday mas'uliyatli va sharafli vazifalarni hal etishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni va xizmati kattadir. Maktabda bolalarni o'qishga o'rgatishdan maqsad og'zaki nutq yuzasidan o'quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, ishlab chiqarishning, hayotning hamma sohalarida faol ijodiy faoliyat ko'rsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab yetishtirishdir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, har tomonlama rivojlangan innovatsion tizim, ilm-fan imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, innovatsiya jarayonlarini ta'lim tizimida samarali amalga oshirish - dunyo hamjamiyatiga raqobatbardosh kadrlarni yetkazib bermoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, innovatsion ta'lim texnologiyalarini ilm-fan va ta'lim sohasida muvaffaqiyatli qo'llash - o'quvchilarda o'z oldiga maqsad qo'yish, erkin va mustaqil fikrlash, o'z fikr-mulohazalarini bayon etish va uning to'g'riligini boshqalarga isbotlay olish, yakka tarzda va juftlikda ishlash, hamkorlikda ishlash, ijodiy fikrlash, ma'lumotni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z iqtidorini namoyon qilish, berilga imkoniyatlardan eng ma'qulini tanlash, bahs-munozaraga kirishish ko'nikmalarni shakllantiradi va rivojlantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti.
2. M. E. Musayeva, G. T. Boymurodova, A. K. Otaboyev. D. T. Po'latova, M. J. Abdullayeva, "Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar", T. : 2016.
3. R. Yo'ldoshev, R. Xusainova, U. Bobojonov "Ta'limning interfaol metodlari", Urganch-2011.
4. J.G'. Yo'ldoshev "ta'lim yangilanish yo'lida", Toshkent: "O'qituvchi", 2000.



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ТИКУВ БУЮМЛАРИНИ КОНСТРУКЦИЯЛАШ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Исаева Дилфуза Хамидовна
Тошкент тўқимачилик ва енгил
саноат институти доценти
Телефон: +998977430795
Dilya_isayeva@mail.ru

АННОТАЦИЯ: Ҳозирги кунда таълим беришда нафақат оммавий педагогик технологиялар, балки инновацион технологиялар қўллаш орқали таълим сифатини ошириш самарали бўлиб келмоқда. Махкур мақолада мутахассислик фанлари мисолида инновацион технологияларнинг қўлланилиши ёритиб берилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: педагогик технология, ижодий ёндошув, инновация, интерфаол услуб, индивидуал ёндошув

Республикамизда шаклланаётган бозор иқтисодиёти таълим тизими олдида жaxon стандартлари талабларига жавоб бера оладиган, ҳаракатчан, салоҳиятли, ишлаб чиқариш ва ижтимоий соҳадаги янгиликларни фаол қабул қила оладиган ва янгилик ярата олишга қобилиятли ижодкор мутахассисларни тайёрлаш вазифасини қўйди. Бундай мутахассислар касбий билимларни ўзлаштиришдан ташқари, ташаббускорлик, илмий изланувчанлик, мустақиллик, танқидий фикрлаш, масалаларни еча билиш ва уларни объектив баҳолаш кўникмаларини эгаллаган бўлиши керак.

Олий таълим тизимида енгил саноат йўналишида таҳсил олаётган талабалар эса юқорида санаб ўтилган кўникмалардан ташқари ижодкорлик, креативлик каби компетенцияларни эгаллашлари талаб этилади. Чунки ушбу йўналишдаги талабалар учун ижодкорлик ва ижодий фаолият катта аҳамиятга эга.

Ҳозирги кунда таълим жараёнида интерфаол услублар (инновацион педагогик ва ахборот технологиялари)дан фойдаланиб, таълимнинг самарадорлигини кўтаришга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда. Замонавий технологиялар қўлланилган машғулотлар талабалар эгаллаётган билимларни ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб, таҳлил қилишларига, ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига қаратилган. Ўқитувчи бу жараёнда шахс ва жамоанинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади, шу билан бир қаторда, бошқарувчилик, йўналтирувчилик вазифасини бажаради. Бундай ўқув жараёнида талаба асосий фигурага айланади.

Ҳозирги даврда содир бўлаётган инновацион жараёнларда таълим тизими олдидаги муаммоларни ҳал этиш учун янги ахборотни ўзлаштириш ва ўзлаштирган билимларини ўзлари томонидан баҳолашга қодир, зарур қарорлар қабул қилувчи, мустақил ва эркин фикрлайдиган шахслар керак.

Шунинг учун ҳам, таълим муассасаларининг ўқув-тарбиявий жараёнида замонавий ўқитиш услублари - интерфаол услублар, инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир. Педагогик технология ва уларнинг таълимда қўлланишига оид билимлар, тажриба талабаларни билимли ва етук малакага эга бўлишларини таъминлайди.

Инновация - янгилик киритиш, янгилик демақдир. Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва талаба фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерфаол услублардан фойдаланилади [1].

Интерфаол - ўзаро ҳаракат қилмоқ ёки ким биландир суҳбат, мулоқот тартибида бўлишни англатади. Бошқача сўз билан айтганда, ўқитишнинг интерфаол услубиётлари -билиш ва коммуникатив фаолиятни ташкил этишнинг махсус шакли бўлиб, унда таълим олувчилар билиш жараёнига жалб қилинган бўладилар, улар биладиган ва ўйлаётган нарсаларни тушуниш



ва фикрлаш имкониятига эга бўладилар. Интерфаол дарсларда ўқитувчининг ўрни қисман талабаларнинг фаолиятини дарс мақсадларига эришишга йўналтиришга олиб келади.

Юқоридаги таърифларга таяниб энгил саноат йўналиши бўйича тахсил олаётган талабаларнинг ижодий фаолиятларини ривожлантиришда турли хил омиллар таъсир қилади деб айтиш мумкин. Ижод ўз-ўзидан шаклланиб қолмайди, ижодий фаолият маълум бир вақтда ўқиб-ўрганиш, ўз устида ишлаш орқали такомиллашиб боради. Ижодий фаолият даврида талабалар аввал ўзлаштирилган билим, кўникма ва малакаларидан фойдалана олишлари, маълум фаолият усулларини умумлаштира олишлари, масалаларни ечишнинг янги йўлини топа билиши лозим [2].

Энгил саноат йўналишида бир қатор мутахассислик фанлари мавжуд бўлиб, айнан “Тикув буюмларини конструкциялаш” фани мураккаб бичимдаги либос моделлари шаклини, ҳажмини таҳлил қилиш ва моделларни яратишда янги ғояларни шакллантиришга қаратилган. Моделларни яратиш учун инсон тана ўлчамлари ўрганилиши керак. “Тикув буюмларини конструкциялаш” фани ўқув дастурини таҳлил қиладиган бўлсак, унда “Одам танаси ўлчамларини тадқиқ қилиш усуллари” мавзулари айнан инновацион технологияларга қаратилган.

Одам танаси ўлчамлари икки хил усулда: контактли ва контакtsiz усулда ўлчанади. Контактли усул бевосита одам танаси билан контактда, яъни танага тегинган ҳолда ўлчанади. Контактсиз усулга эса фотометрик, стереофотограмметрик, лазерли ва ҳ.к. киради. Бу усулларнинг ўзига хос хусусиятлари шундаки, табиий ҳолдаги (натурада) қад-қоматнинг (фигуранинг) ўлчовлари фотосуратларда тасвирларнинг ўлчовлари билан алмашинади.

Ҳозирги вақтда бу мавзунини “Тикув буюмларини конструкциялаш ва технологияси” кафедрасидаги 3D боди сканердан (1-расм) фойдаланиб ўтилади.



1-расм. 3D боди сканернинг кўриниши ва сканерланган одам ўлчам кўрсаткичларининг экранда кўриниши

Сканернинг техник тавсифи: бу сканер инсонни олд, ўнг-олд, ўнг-чап, орт, орт-ўнг, орт-чап томондан 360° бурчакда сканерлайди; калибрлаш вақти - 2 дақиқа; Led ёритгичли (4 та оқ лампа); комплектда 17 “дюймли сенсор экранли монитор, автоматик сканерлаш жараёнини узатиш + дастурий таъминот мавжуд; 20 та датчиклардан иборат; 1,5 секундда 12 та камералар ишга тушади; калибрлаш мосламаси ёрдамида ўлчов майдонини автоматик сошлаш мумкин; қуввати- 1200 Вт, кабина олчами: 1,90*1,73*2,10 м.

Тана ўлчамларини ўлчашда талабалар гуруҳ бўлиб ишлашади. Контактсиз ўлчаш усули талабалар учун янгилик бўлиб ҳисобланади. Бу жараён талабанинг ва ўқитувчининг вақтини тежайди.

Кийим конструкциялаш ижодий фаолият турларидан бири бўлиб, унинг мақсади инсоннинг тегишли моддий ва маънавий эҳтиёжларини қондирадиган объектив муҳитнинг элементларидан бири сифатида кийимни лойихалашдир. Кийим дизайни объекти амалий мақсадга эга бўлган утилитар функция бўлиб, эстетик функциядан ташқари, санъат асари каби бошқа кўплаб функцияларни бажаради. Шунинг учун кийим дизайни анъанавий шаклларнинг



“безаги” эмас, балки ўзгарувчан турмуш тарзи ва одамларнинг эҳтиёжларига мос равишда кийимнинг янги функциялари ва сифатларини лойиҳалашга қаратилган бўлиши керак [3]. Фаннинг мақсадидан келиб чиқиб шуни айтиш мумкинки, талабаларда ижодий фаолиятни ривожлантириш учун куйидаги жиҳатларга аҳамият бериш лозим:

- талабаларнинг характерларига кўра уларга индивидуал ёндошиш;
- уларда мустақил фикрлаш, билимларни ўзлаштириш ва уни амалда қўллаш қобилиятини шакллантириш;
- ижодий фаолиятда иштирок этишга қизиқишини ошириш;
- ижодий тўғаракларга жалб қилиш;
- соҳа доирасида бўлиб ўтадиган танловларда иштирокларини таъминлаш;
- мустақил ишлашлари учун турли мавзуларда вазифалар бериш;
- ижодий фаолиятларидан келиб чиқиб, мунтазам равишда рағбатлантириб бориш ва бошқалар.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, талабанинг ижодий фаолияти аниқ бир мақсадга йўналтирилиши, бажараётган фаолиятининг самарали бўлиши ва шу орқали кейинги фаолият турига мотивация бера олиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Saidamatov, F. R. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Yosh olim. - 2012. - № 8 (43). - 374-375-б.

2.Wikoff, Katherine Hennessey;Kieselburg, James R.;Dwyer, Margaret T.;Marini, Candela. Building STEAM: Creating a Culture of Art in an Engineering Education/ ASEE Virtual Annual Conference, 26 July 2021

3.Камилова Х.Х., Исаходжаева Н.А., К.Р.Фузаилова. Костюм креатив графикаси. Тошкент.: ТТЕСИ-2017 й. 245-246-б.



ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ПРОЦЕССА ВЛАЖНО-ТЕПЛОВОЙ
ОБРАБОТКИ НА СТРУКТУРУ И НА ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА
ТРИКОТАЖНЫХ ПОЛОТЕН

Бахриддинова Дилрабо Аманбоевна,
Худжамуродов Сурхонбек Хусан угли
Ташкентский институт
текстильной и легкой промышленности
Телефон: +998971393399
raboshka82@gmail.com

АННОТАЦИЯ: В статье приведены данные об изменениях физико-механических свойства тканей при прессовании и влажно-тепловой обработке материалов в процессе формообразования изделий верхнего ассортимента.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: физико-механические свойства, пар, воздухопроницаемость

